

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERIMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 66.547

TURSUNOV ABDUXAMID SHOKIROVICH

**“YOSH OILALARNI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNI
MOLIYALASHTIRISH”**

5A 340102 – «Tarmoqlar iqtisodiyoti»

**Iqtisod fanlari magistri
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: I.f.n. N.Bekmurodov

Termiz - 2012 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3-8
I. O'ZBEKISTONDA YOSH OILALARNI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNI MOLIYALASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY VA XUQUQIY ASOSLARI	
1.1 Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni moliyalashtirishning o'ziga xos jixatlari va ijtimoiy-iktisodiy ahamiyati.	9-20
1.2. Yosh oilalarni yakka tartibda uy-joy bilan ta'minlash va uni moliyalashning me'yoriy xukukiy asoslari.	21-35
II. YOSH OILALARNI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNING USTUVOR YUNALISHLARI VA UNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI.	
2.1. Bank kreditlarining yosh oilalarni zamonaviy uy-joy bilan ta'minlashdagi ahamiyati.	36-43
2.2. "Mustaxkam oila yili" davlat dasturi va uning yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashdagi roli.	44-52
III. YOSH OILALARNI NAMUNAVIY UY-JOY BILAN TA'MINLASH VA UNI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YULLARI.	
3.1 Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash va uni moliyalashning xorij tajribasi.	53-56
3.2. Yosh oilalarni namunaviy loyixa asosida uy-joy bilan ta'minlashning istiqboldagi rejalar.	57-65
XULOSA	66-68
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.	69-73

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

Oila — jamiyatning asosi. Har bir kishi davlat va jamiyat rivojiga xizmat qilishi, odamlarga nafi tegadigan ezgu ishlarni amalga oshirishi uchun avvalo uning oilasi tinch va farovon bo'lishi kerak. Zero, oilalar mustahkamligi jamiyat mustahkamligining garovidir. Shu bois mamlakatimizda, eng avvalo, yosh oilalarni har jihatdan qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Bu — bejiz emas, albatta. Chunki endigina mustaqil hayotga qadam qo'ygan yoshlarning turmushi, hayoti ertaga qanday bo'lishi atrofdagilar va jamiyatning e'tiboriga bog'liq.

Oilani, yosh oilani qo'llab-quvvatlash haqida gap ketganida Prezidentimiz tashabbusi bilan bu borada amalga oshirilgan ko'plab ezgu ishlar yodga tushadi. Mustaqillik arafasida yurtimiz rahbari xalq dardiga darmon bo'lib, bu boradagi islohotlarni amalda boshlab bergan edi. 1989 yilning yozida qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitni yaratib berish bo'yicha tegishli qaror qabul qilindi. Unga muvofiq 1989-1990 yillarda bir yarim milliondan ortiq oilaga qo'shimcha yer ajratildi, 700 ming oilaga tomorqa berildi.

Bunda asosan Yosh oilalarga yer berish, ular iqtisodiy barqaror bo'lishi uchun sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Minglab oilalarga uy chorvasi sotib olish uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Yosh onalarni kamqonlik kasalidan saqlash maqsadida qo'shimcha ovqatlanish uchun katta miqdorda moliyaviy mablag'lar berildi.

1998 yil «Oila yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan oilaning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini oshirish, uning to'kis va farovon bo'lishi borasida keng qamrovli ishlar qilindi. Ayniqsa, Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga jiddiy e'tibor berildi.

Prezidentimizning 2007 yildagi «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq davlat hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa mutasaddi tashkilotlar zimmasiga qator vazifalar yuklandi. Xususan, har bir hududda yangi ish o'rinlari ochish, Yoshlarni kichik biznes va tadbirkorlikka jalb qilish, Yosh oilalarga o'z ishini tashkil etishi uchun mikro kreditlar ajratish, kasanachilikni rivojlantirish, ularga imtiyozli ravishda qoramollar sotish asosida mehnat bilan bandligini ta'minlash va Yosh oilalarning barqaror daromad manbalarini shakllantirish uchun boshqa zarur sharoit yaratish asosiy vazifa etib belgilandi.

Ipoteka va iste'mol kreditlari ajratish yo'li bilan uy-joy sotib olish yoki qurish, uy-xo'jaligini yo'lga qo'yishda Yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda amaliy yordam berish, ta'lim, tibbiyot, huquqiy axborot va maslahat, shuningdek, sog'lig'ini saqlash borasidagi xizmatlar sifatini oshirish, Yosh oilalarni ma'naviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, Yoshlarda oila oldida mas'uliyat hissini, mehnat qilish va xalqimizning boqiy ma'naviy qadriyatlari ruhida bola tarbiyalashga intilish tuyg'ularini shakllantirish borasida aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'sha yilning o'zida yosh oilalar kichik biznes va tadbirkorlikni tashkil qilishi, uy-joy qurishi, ta'mirlash va sotib olish (ijaraga olish)i, uy-xo'jaligini yo'lga qo'yishi kabi maqsadlar uchun 50 milliard so'm mablag' ajratildi.

Farmonda bu boradagi ishlarni har yili davom ettirish belgilab qo'yilgan. Shunga muvofiq tijorat banklari, «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati, Savdo-sanoat palatasi Yosh oilalarga yuqoridagi maqsadlar uchun 2007 yilga mo'ljallangan hajmdan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha kredit mablag'larini izlab topish va ajratish to'g'risida Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan takliflarni har yili Vazirlar Mahkamasiga kiritishi ko'zda tutilgan.

Mazkur Farmon imtiyozlari tatbiq etiladigan yosh oila toifasiga, har biri 30 Yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tgan yoshlar kirishi

belgilangandir. Farmonga muvofiq yosh oilalarga berilgan imtiyozlar bo'yicha ishlatiladigan mablag'lar qator soliqlardan ozod qilinadi.

Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida yosh oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kam-ko'stini to'ldirib olishi uchun ko'mak berish muhim ahamiyatga ega. Chunki oila mustahkam bo'lishi, sog'lom va bilimli farzandlar tarbiyalanishi iqtisodiy ta'minlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq.

Kelgusi yilni «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilar ekan, davlatimiz rahbari yana bir bor hammaning e'tiborini shunga qaratdi. Jumladan, endi yuzaga kelgan, katta umid bilan hayotga qadam qo'yayotgan Yosh oilani moddiy va ma'naviy jihatdan astoydil qo'llab-quvvatlash, ularga ko'mak, imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berish, avvalo, uy-joy bilan ta'minlash — bularning barchasi uchun nafaqat ota-onalar, birinchi navbatda davlat va jamiyatimiz mas'ul ekanini ta'kidladi.

Shundan kelib chiqib, «Mustahkam oila yili» munosabati bilan ishlab chiqiladigan Davlat dasturi orqali bu boradagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, bunda, jumladan, kam ta'minlangan, iqtisodiy imkoniyati cheklangan yosh oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, uy-joy xo'jaligini tashkil etishda ularga qo'shimcha imkoniyat yaratib berish maqsadga muvofiq.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni moliyalashtirishni rivojlantirish iqtisodiy muammolari va aholini ijtimoiy sohada qo'llab quvvatlash masalalarida iqtisodchi olimlardan Yodgorov V.A. Butunov.D.V. Rizaev M.T. Xusanov R.X. Usmonov S.N. Xushmatov N.S, Jumaev O. Xushvaqtova X. Ro'ziev.O. Avazov.E Bekmurodov.N va boshqa iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Ammo, shu bilan birgalikda yuqoridagi mualliflar ishlari turli davrlarda, umumiy holda sohasini rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, Yosh oilalarni namunaviy uy-joy bilan ta'minlash, uzoq qishloq joylarda yangi aholi

yashaydigan massivlarni tashkil qilishni tizimini rivojlantirish sifatida e'tibordan chetda qolgan va bu borada tayyorlangan va himoya qilingan ilmiy ishlar ham juda kamchilikni tashkil etadi. Ayni paytda hukumat qarorlari asosida yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash sohasida ipoteka kreditlari va qurilish injiniring kompaniyalari faoliyatini tashkil etish yuzasidan olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot maqsadi.

Tadqiqotning maqsadi-yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni xuquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat

Tadqiqot vazifalari.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar hal qilingan:

- Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari nazariy jihatdan ochib berish;
- Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari nazariy jihatdan yoritib berish;
- Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashning hozirgi holati tahlillari asosida mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashning hozirgi ahvoli atroflicha tahlil qilingan holda banklarning ahamiyatini oshirish yuzasidan takliflar tayyorlash;
- Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot ob'ekti va predmeti.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Respublikamizdagi yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashda hukumat va banklar olindi.

Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni rivojlantirish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy va xuquqiy munosabatlar tizimi tadqiqotning predmeti bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida taqqoslama tahlil, abstrakt fikrlash, iqtisodiy hisob-kitob, ekspert baholash va monografik kuzatish usullaridan keng foydalanildi.

Ilmiy yangiligi.

Tadqiqot natijalari ilmiy yangiligi quyidagi ishlanmalarda o'z ifodasini topgan:

- Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni moliyalashtirish faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud vaziyatlarni hisobga olgan holda nazariy jihatdan ochib berildi;

- Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari hukumat qarorlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan nazariy jihatdan asoslab berildi;

- Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashda banklarning faoliyati nazariy jihatdan asoslab berildi;

- Qurilish injiniring kompaniyalarining faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud vaziyatlarni hisobga olgan holda nazariy jihatdan ochib berildi asoslab berildi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar mamlakatimizda namunaviy uy-joy qurilishi sohasini xususan, ipoteka kreditlari mexanizmini rivojlantirish ilmiy asoslarini boyitishga xizmat qiladi. Taklif va tavsiyalardan shahar va qishloq joylarda yangi va xar taraflama qulay namunaviy 3-4-5 xonali

uy-joy qurilishida bank, injiniring kompaniyalar va yosh oilalar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish yuzasidan hukumat va idoralar doirasida tashkiliy-iqtisodiy tadbirlar ishlab chiqishda, aholini ijtimoi himoyasini rivojlantirishda va shu sohadagi ilmiy izlanishlar jarayonida keng foydalanish mumkin.

Shuningdek, tavsiyalardan oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlari doirasida foydalanish tavsiya etiladi.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. O'ZBEKISTONDA YOSH OILALARNI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNI MOLIYALASHNING TASHKILIY – IQTISODIY VA XUQUQIY ASOSLARI

1.1 Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashni moliyalashtirishning o'ziga xos jixatlari va ijtimoiy-iktisodiy ahamiyati.



Kishilarning turar-joyga bo'lgan ehtiyoji moddiy va ma'naviy ehtiyojlari orasida eng birinchi va asosiylaridan hisoblanadi. Zero, turar-joyga nisbatan ehtiyoji qondirilmasdan turib inson xotirjam hayot kechirish va o'zini erkin his qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Fuqarolarning turar-joyga bo'lgan

ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha ko'rinish va mazmun kasb etganligini ta'kidlab o'tish joiz. chunki, bozor munosabatlari sharoitiga kelib kishilardagi boqimandalik tuyg'usi barham topa boshladi, davlatga tegishli turar-joy binolarning katta qismi xususiyashtirildi.

Shu bilan birga xususiy mulkchilikka keng e'tibor berilishi munosabati bilan turar-joylarni xususiyashtirish, yakka tartibda uy-joy qurish, davlatga tegishli bo'lmagan turli tashkilotlarning turar-joylarni qurishi va sotishi turar-joy huquqi fani tushunchasi, maqsadi va vazifalari tubdan o'zgarishiga olib keldi. Ayni paytda turar-joy munosabatlarini tartibga soluvchi yangi qonunchilik tizimining shakllanishi ham turar-joy huquqining tushunchasi, predmeti va maqsadini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Ma'lumki, turar-joyga bo'lgan ehtiyoj, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, huquq sub'ektlari orasida faqat fuqarolarga xosdir. Shu bois fuqarolargina turar-joyda istiqomat qilish huquqiga egalar.

Turar-joy munosabatlari tizimida fuqarolarga qulaylik tug'dirish uchun zarur bo'lgan kommunal xizmatlar, turar-joylarni tabiiy gaz, elektr va issiqlik energiyasi, sovuq va issiq suv bilan ta'minlash kabi munosabatlar mavjudki, ular ham turar-joy huquqi sohasi, shuningdek, Yakka tartibda uy-joy qurish uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish zarurki, yakka tartibda uy-joy qurish uy-joy huquqining muhim tarkibiy institutlaridan birini tashkil etadi hamda O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 22-moddasiga muvofiq, fuqarolar va yuridik shaxslarning turar-joyini xususiy mulk qilib olish yo'llaridan biri hisoblanadi. Turar-joyini xususiy mulk qilib olishning birinchi, ya'ni dastlabki asosi Yakka tartibda uy-joy qurish hisoblanadi. Yakka tartibda uy-joy qurish bilan bog'liq munosabatlar asosan ma'muriy-huquqiy hujjatlardagi normalar bilan, er huquqi va qisman fuqarolik huquqi me'yorlari bilan tartibga solinadi. yakka tartibda qurilgan uy-joy u joylashgan hududning ahamiyatiga qarab turli tartib va asoslarda rasmiylashtiriladi hamda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi va shundan so'ng uy-joyga nisbatan mulk huquqi vujudga keladi.

Yakka tartibda uy-joy qurish mamlakatimizda uyga ega bo'lishning keng tarqalgan usullaridan biri sanaladi. Umumiy qoidaga binoan, bir necha yil ilgari kishilar faqat ikki: xususiy mulk huquqi (meros) va qurish huquqiga asosan uyga ega bo'lishlari mumkin bo'lgan. Shahar va posyolkalarda fuqarolar asosan uy-joy qurish huquqiga asosan uy-joyga ega bo'lishgan. Fuqarolar uy qurishni xohlasalar kommunal bo'limlar bilan ularga er uchastkasini taqdim etish to'g'risida shartnoma tuzishgan.

Yakka tartibda uy-joy qurish predmeti sifatida uy-joy yoki turar-joy namoyon bo'ladi. Ma'lumki, amaldagi qonun hujjatlari va maxsus adabiyotlarda "turar-joy" va "uy-joy" tushunchasida yakdillik mavjud emas.

Mazkur soha olimlari turar-joy deganda shaxsning turar-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida doimiy yashash uchun vakolatli davlat organi tomonidan rasmiylashtirish tartibida foydalanishga berilishi mumkin bo'lgan qurilishni tushunish kerak, deb hisoblaydilar.

Vaqtincha qurilgan ob'ektlarga turar-joy sifatida qarash noto'g'ri. Ular turar-joy qurilgandan so'ng albatta buzilishi yoki ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish lozim .

Eskirgan, avariya holatidagi yoki boshqa asoslarga ko'ra yashash uchun yaroqsiz bo'lgan uylar va turar-joylarni uy-joy fondidan chiqarish O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yashash uchun yaroqsiz bo'lgan uylar va turar-joylar kelgusida boshqa maqsadlarda foydalanish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta qurilishi mumkin yoki bunday uylar Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining qaroriga binoan buzib tashlanadi.

O'zbekiston Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda ajratilgan er uchastkalarida qurilgan yangi uy-joylar qurib bitkazilgandan so'ng va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab uy-joy sifatida shaxslarga tegishli bo'lishi ko'rsatilgan (FKning 210-moddasi). Shuningdek, qurib bitkazilmagan uylarga nisbatan imorat so'zi ishlatilgan (FKning 212-moddasi). Fuqarolik kodeksida uy-joyga nisbatan turar-joy iborasi ishlatilmagan. Davlatga qarashli uy-joylarga nisbatan esa kvartira so'zi qo'llangan (FKning 210-moddasi 3-bandi).

Uy-joy kodeksida uy-joyga nisbatan uy-joy, turar-joy va kvartira so'zlari ishlatilgan. Jumladan, kodeksning 2-bobi "Uy-joy fondi. Turar-joy" deb nomlanadi. Uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo'lgan turar-joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar-joylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat uylar, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus

maqsadli uylardan) iborat bo'lgan fondir (7-modda). Uy-joy fondi xususiy va davlat uy-joy fondlaridan iborat .

Fuqarolarning doimiy yashashiga mo'ljallangan, belgilangan sanitariya, yong'inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek, belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz qariyalar uchun internat uylar, shuningdek, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo'ljallangan joylar turar-joy deb hisoblanadi (9-modda). Fuqarolik kodeksida uy-joyga nisbatan turar-joy so'zi ishlatilmagan, shunday ekan, Fuqarolik kodeksi normalarining Uy-joy kodeksi normalariga nisbatan ustunroq mavqega egaligini inobatga olsak, turar-joy o'rnida uy-joy so'zi qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkala kodeksda ham yakka tartibda uy-joy qurish to'g'risida alohida moddalar mavjud emas.

Shunga ko'ra, yakka tartibdagi uy-joyga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq: "Yakka tartibdagi uy-joy — shaxsning turar-joyga bo'lgan ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan, belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan rasmiylashtirilgan, bir er uchastkasida joylashgan, doimiy yashash, dam olish va shaxsiy xo'jalikni yuritishga mo'ljallangan bir yoki bir necha turar-joy imorati majmui".

Yakka tartibdagi uy-joyni qurish mamlakatimizda uy-joyga ega bo'lishning keng tarqalgan usullaridan biri sanalgani uchun Uy-joy kodeksining tegishli moddalariga o'zgartirish kiritilishi lozim deb o'ylaymiz.

Fuqarolik kodeksiga binoan fuqarolar uy-joyga qonunchilikda belgilangan asoslarda ega bo'lishlari mumkin. Er-xotinlar va ular bilan birga yashovchi bolalar bitta uyga ega bo'lishlari va bu uy ulardan biriga yoxud hammaga tegishli bo'lishi mumkin. Bir turar-joyga ega bo'lgan shaxslarning har birini qonun yana bir turar-joyga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi. Voyaga etgan farzandlar alohida uy-joy olishlari mumkin.

Umuman huquq amaliyotida yakka tartibdagi uy-joy qurilishining ikki usuli farqlanadi:

- 1) pudrat usuli bilan;
- 2) xo'jalik usuli bilan;

Uy-joy, yordamchi xo'jalik imoratlari va hovlidagi inshootlar qurilishi shaharsozlik normalari va qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak. Bir er uchastkasida ikki yoki undan ortiq oilaga tegishli bo'lgan bir nechta uy-joy qurilishiga yo'l qo'yiladi.

Yakka tartibdagi uy-joy qurilishini moliyalashtirish yakka tartibdagi uy-joyni qurayotgan shaxsning o'z mablag'lari, bankning ipoteka kreditlari va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa qarz mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Yakka tartibda uy-joy qurish masalasiga davlatimizda va MDHga a'zo boshqa ko'pgina mamlakatlarda ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Keng doiradagi fuqarolar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari aholining ko'pchilik qismi (80 foizi) alohida hovlida istiqomat qilishni xohlashini ko'rsatadi. Boz ustiga, alohida Yakka tartibda uy-joy qurish aksariyat holatlarda ko'p qavatli binolar qurishdan arzonroqqa tushadi.

Yaqin kunlargacha ushbu masala bilan maxsus shug'ullanilmagan, binobarin, O'zbekiston shaharlari bosh rejalarida ham individual qurilishlar uchun maydonlar ajratilmagan edi. Buning natijasida fuqarolarga bugungi kunda transport-aloqa va infratuzilmalar mavjud bo'lmagan kam qavatli qurilishlar atrofidan er ajratib berildi.

Biroq, tan olish darkorki, bugungi kunda mamlakatimizda ushbu sohada ham keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, kredit asosida yakka tartibda uy-joy qurish uchun mablag'lar ajratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi hamda hozir, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar va yosh oilalarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun kreditlar berish rag'batlantirilayapti. So'nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Prezidentining

2005 yil 16 fevraldagi "Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2007 yil 18 maydagi "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Adliya vazirligida 2007 yil 12 oktyabrda ro'yxatga olingan "Aholining keng qatlami, shu jumladan Yosh oilalar uchun uy-joy qurilishini va rekonstruktsiya qilishni moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida"gi nizom shular jumlasidandir.

Ammo mustaqilligimiz ostonasida bu muammo o'ta dolzarb edi. O'lkamizdagi vaziyatni chinakamiga o'nglash, yurt-doshlarimizning hayotga garashini, bugungi va ertangi kunga ishonchini mustahkamlash uchun avvalo, ular-ning iqtisodiy, moddiy ahvolini yaxshilashni chuqur anglagan respublikamiz rahbari aholi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan juda katta bir masalani — odamlarga tomorqa yer berish masalasini kun tartibiga qo'yagan.

1989-yil 17-avgustda Islom Karimov boshchiligida respublika hukumatining Toshkentda bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida aholiga tomorqa va shaxsiy uchastkalar ajratish masalasi muhokama qilinadi va «Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida» qaror qabul qilinadi. Ushbu tarixiy hujjatda qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi.

Bu boradagi amaliy ishlar natijasida 1989—1990-yillarda bir yarim milliondan ko'prog oila go'shimcha yer ajratildi. 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi.

Bugun tola ishonch bilan aytish mumkinki, bu murakkab masalaga ana shunday oqilona yondashuv tufayli O'zbekiston bo'yicha ming-minglab odamlar uy-joyli, ishli bo'ldi, bozorlarda mahsulot ko'payib, narx-navo arzonlashdi, eng muhimi, ijtimoiy keskinlikning oldini olishga erishildi.

Bundan tashqari, yuz minglab gektar sug'oriladi-gan yer texnik ekinlar oborotidan chiqarildi, paxta, yetishtirish plani 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu — paxta yakkahokimligini bartaraf etish yo'lidagi dastlabki. ammo o'ta muhim amaliy qadam edi.

Ma'lumki, o'sha paytda O'zbekistonimiz SSSR deb atalgan dunyodagi eng qudratli imperiyaga qaram respublika edi. Uni na Birlashgan Millatlar Tashkiloti. na boshqa xalqaro tashkilotlar, na jahon hamjamiyati tanir, tan olar edi. Ya'ni. mustaqillik yo'lidagi harakatlarimizda bizni qo'llab-quvvatlaydigan. biz tayanadigan biron-bir tashqi omil, najotkor kuch yo'q edi. Shunday bir sharoitda yuqorida tilga olingan adoqsiz muammolarni hal qilish uchun respublika rahbari kimga, nimaga ishonib harakat qildi, degan savol tug'ilishi tabiiy, albatta.

Bularning hammasi bugun muhokama qilinayotgan Andijon, Xorazm oblastlarida qishloqda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni va yakka tartibdagi uy-joy quri-lishini rivojlantirishni ta'minlash yuzasidan olib borayotgan ishlari to'g'risidagi masalaga bevosita aloqadordir. Joylarda shu masalalarning o'rganilishi hozircha hisobotlar amaliy ishlarga qaraganda ko'p bo'layotganini ko'rsatdi.

O'sha kunlarda qishloqlarimizda 240 ming oilaning yeri yo'q. 1,8 milliondan ko'proq hovli esa uy-joy qurilishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun kengaytirishga juda muhtoj edi. Shaharlar, rayon markazlari va shahar tipidagi posyolkalarda yer yo'qligi sababli mehnatkashlarning yakka tartibda uy-joy qurishga, kollektiv ravishda bog'dorchilik qilish va polizchilik bilan shug'ullanishga imkoniyatlari yo'q. Faqat Toshkent shahrida 92 ming oila yer uchastkasi olish uchun navbatda turardi.

Bizda mazkur masala yuzasidan juda ko'plab qarorlar qabul qilingan, lekin, afsuski, amalda siljish yo'q va shu boisdan bularning hammasi odamlarda adolatli ravishda norozilik tug'dirmoqda edi.

Yer ulushini kengaytirish orqali qanday masalalar hal etildi?

Birinchidan, Oziq-ovqat programmasini bajarildi. Shaxsiy xo'jalikdagi yerning bir gektari jamoat sektoridagiga nisbatan to'rt barobar ko'p samara beradi. Shaxsiy yordamchi xo'jalikning bir gektaridan olinayotgan samara 12,5 ming so'mni, ijtimoiy sektorda esa atigi salkam uch ming so'mni tashkil etadi.

Respublikada haydaladigan yerlarning atigi 5 foizi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarga berilgan, ular qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining to'rtidan bir qismini ishlab chiqarishmoqda. Yetishtirilayotgan sabzavot, poliz ekinlari, go'shtning yarmidan ko'prog'i va sutning uchdan ikki qismi ular hissasiga to'g'ri keladi. Bu boradagi mavjud muammolarni hal etsak va ehtiyoji bo'lgan barcha kishilarni yer uchastkalari bilan ta'minlasak-chi? Agar mazkur masalalarni hal etishda barcha keraksiz to'siqlarni olib tashlasak, odamlar o'zlarini qanchalik yengil his etar edilar. Mana shuning uchun ham bu masalalarni zudlik bilan yechishga kirishishimiz, yer uchastkalarini qanday izchillik bilan, qancha va qaysi muddatlarda ajratishni ijtimoiy adolat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqishimiz kerak. Biz shu maqsadda joylarda tuzilgan komissiyalar bu masalalarning hammasini xolis va tezda ko'rib chiqishlariga umid qilamiz.

Ikkinchidan, bu uy-joy programmasini hal etishni jiddiy tarzda oldinga siljitadi. Yakka tartibda uy-joy qurish o'z salmog'iga ko'ra uy-joy programmasida 60 foizdan ko'proqni tashkil etadi, hozir esa ana shu ko'rsatkich 89 — 90 foiz atrofida bajarilmoqda. Yer uchastkalari, pul ssudalari va zarur qurilish materiallari ajratib berish bu yo'ldagi asosiy g'ovdir. Biz masalani hal etishni jadallashtirishimiz, odamlarga yer berishimiz, ularni ssuda, qurilish materiallari bilan taminlashimiz, xonadonlarga suv, kanalizatsiya, gaz tushirishimiz kerak.

Hozir esa kimlar bunga mashaqqat va aziyat chekib erishmoqdalar. Aholi byurokratik aparatning barcha to'siqlaridan o'tishga majbur. Ularning yo'lida qanchadan qancha amaldorlar va to'ralar uchrayapti! Bu yerda poraxo'rlik ham, qonunsizlik ham, mazkur masalaning siyosiy ahamiyatini batamom tushunmaslik ham mavjud. Partiya va sovet organlari esa shu ahvolga ko'nikib

qolishgan. Markaziy Komitetga shu xususda ko'plab xatlar kelmoqda, ularda odamlarning arzdodlari bitilgan. Odamlar yer uchastkalari ajratib berilayotganida pora berish va pora olish rasm bo'lib qolganini, joylarda esa hech kim haddidan oshib ketgan amaldorlarga zarba bermayotganini aytmoqdalar.

Bu borada batamom boshqacha yondashuv zarur. Yo'limizga g'ov bo'layotgan barcha narsalarga qarshi, biz bilan xalq o'rtasiga raxna solayotganlarga qarshi haqiqiy jang boshlash kerak. Biz ana shu faktlarning hammasini prinsipiiallik bilan o'rganib chiqishimiz, bularga siyosiy baho berishimiz, odamlarni byurokratik aparatning o'zboshimchaligidan ijtimoiy jihatdan muhofaza etishni ta'minlashimiz kerak. Huquqni muhofaza qilish organlari, prokuratura, sud insonning qonuniy huquqlari, ijtimoiy adolatni himoya qilishga otlanishlari kerak. Xalq bizdan shuni talab qilmoqda.

Uchinchidan. Bu yerda ishsizlik muammosi ham hal etilmoqda. Masalan, Farg'ona oblastini olaylik, bu yerda 149 ta kolxoz va sovxoz bor. Agar har bir xo'jalikda 50 — 60 kishilik qurilish brigadasi tuzib, ular qurilish materiallari bilan ta'minlansa, bunday brigadalar aholi bilan shartnoma asosida uy-joy qurishlari mumkin bo'lur edi. Faqat shuning evaziga 7,5 ming kishini ish bilan ta'minlash mumkin bo'lardi. Xo'jaliklarda g'isht, duradgorlik buyumlari va boshqa narsalar tayyorlaydigan yordamchi korxonalar bunyod etishga kirishilsachi. Masalan, Xorazm oblastida shunday ish tutish qurilish materiallari taqchilligini bartaraf etish bilan birga uch yil mobaynida ishlab chiqarishga qo'shimcha tarzda 2,5 ming kishini jalb etish imkoni-ni berdi. Bu odamlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etishning to'g'ridan to'g'ri yo'lidir. Ularga mehnat daftarchalari berish, pensiya bilan ta'minlash mumkin bo'ladi. Buning ustiga, ular o'zlari uchun qurishlarini, tomorqa uchastkasi orqali esa o'z oilalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ko'p jihatdan ta'minlashlarini nazarda tutsak, bu ishdan ko'riladigan naf yaqqol namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan. Biz ayollarning ish bilan bandligi muammosini ham bir qadar hal etgan bo'lamiz. Ular ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lmagan aholining anchagina qismini tashkil etadi. Ko'p bolali oila-larda ayollar bolalarni tarbiya qilmoqda, ro'zg'or yumu-shi bilan band bo'lib turishibdi, albatta. Umuman shuni aytishim kerakki, oilada mamlakatimizning bo'lajak grajdanini tarbiyalayotgan onalarni ishsizlar qatoriga qo'shish to'g'risidagi masalaga men shubha bilan qarayman. Olimlarimiz, mutaxassislarimiz bu haqda o'ylab ko'rishlari kerak.

Ayollar tomorqada, avvalo, o'z oilalari manfaatini ko'zlab mehnat qilishlari mumkin bo'lur edi. Ularning xo'jalik bilan munosabatlari shartnoma bilan rasmiy-lashtirib qo'yilsa va shunga ko'ra ayollar qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirib davlatga topshirsalar, ular ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullangan bo'ladilar. Demak, bu o'rinda ham ularga mehnat staji hisoblash va keyinchalik pensiya tayinlash yo'llarini topish mumkin bo'ladi.

Beshinchidan. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik masala-si ham hal etilmoqda. Agar odamlar ish bilan band bo'lmasalar, ish bo'lmasa — bu ofatdir, ayniqsa, Yoshlar uchun ofatdir. Bekorchilik sababli ular jamiyat uchun zararli xatti-harakatlarga yo'l qo'yadilar, jinoyatlar sodir etadilar, bezorilik qiladilar. Farg'onadagi fojiali voqealar buni yaqqol ko'rsatdi.

Biz yangi avlodni tarbiyalamoqdamiz, ularning ko'pchiligini esa kasb-hunari yo'q, mehnat qilishga o'rganishmagan. Bu kishilar bizning o'rnimizni egal-lashlari kerak. Ularning taqdiri qanday bo'ladi? Kim hozir bu haqda o'ylayapti?

Biz yoshlarni qishloqdagi ishlarga jalb etsak, bu-tun Ittifoqqa jar solib bizni tanqid qilishmoqda. Bu ishda haddidan oshishlar, ba'zan esa qo'pol nuqson-lar bo'ldi va ularga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Lekin shunga ishonchim komilki, bolalarni Yoshlikdan mehnat qilishga o'rgatish kerak. Yer uchastkalari ajratib beradigan bo'lsak, Yoshlar mehnat qilishga rag'bat-lantiriladi, ular o'zlarini yer sohibi deb his etadilar. Mehnat ko'nikmalarini hosil qiladilar.

Hayron qoladigan yeri shundaki, qishloqlardagi har besh xonadonning birida birorta ham chorva mol, 37 foizida sigir, yarmisida qo'y boqilmayapti. Andijon, Namangan va Toshkent oblastlarida esa ahvol yana ham mushkul.

Ko'rib turibsizki, qishloq mehnatkashlariga yer berishdek jo'n tuyulgan masala hozir ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham dolzarb siyosiy ahamiyat kasbj etmoqda. Shuning uchun ham biz bugun ikkita oblast rahbarlarining hisobotini eshitishni zarur deb topdik. Yana bir karra shuni ta'kidlamoqchimanki, biz barchamiz ana shu muammolar butun kompleksini amalga oshirishga nihoyatda mas'uliyat bilan yonda-shishimiz zarur; odamlar o'zlarini hayajonga solib turgan o'tkir ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal etmaganimizni ko'rib, yana bir karra hafsasalari pir bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Aynan oila bag'rida, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati, g'amxo'rliги muhitida farzandning dunyoga kelishi, uning shaxs va fuqaro sifatida kamol topadi. Halollik, ezgulik va mehribonlik haqidagi tushunchalar, kattalarga hurmat tuyg'usi avvalo oilada paydo bo'ladi, insonning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida aynan shu muhitda shakllanadi.

Shu sababli oila institutini qo'llab-quvvatlash bo'yicha avvalgi yillarda boshlagan ishlar davom ettirildi, 2,5 ming Yosh oilaga uy-joy qurish va uni jihozlash kabi masalalarni hal etish uchun tijorat banklari tomonidan 107 milliard 600 million so'mlik ipoteka va iste'mol kreditlari berildi.

Bundan tashqari, viloyat, shahar va tuman hokimliklari tomonidan noturar-joy binolarini rekonstruksiya qilish va uy-joy xarid qilish uchun homiylarning 5 milliard 800 million so'mlik mablag'lari jalb etildi. Shuningdek, 7 ming 200 dan ziyod Yosh oilaga bepul qoramol berilib, shu maqsadlar uchun 5 milliard 300 million so'm mablag' ajratildi

Qulay va barcha kommunal xizmat sharoitlariga ega bo'lgan yakka tartibdagi turar-joy massivlarini kompleks qurish ishlari davlat raxbari e'tibor markazida bo'lgani barchamizga ma'lum.

Ayniqsa, yakka tartibda qurilayotgan uy-joylar loyihalarining qulaylik nuqtai nazaridan boshqatdan ko'rib chiqilib, ajratiladigan yer uchastkalari hajmini to'rt sotix o'rniga olti sotix qilib belgilash to'g'risida qabul qilingan qarorlar alohida ahamiyat kasb etdi.

Natijada so'ngi yillarda mamlakatimizning barcha 159 ta qishloq tumanida namunaviy loyihalar bo'yicha tayyor holda topshirish sharti bilan 6 ming 800 ta uy-joy barpo etildi.

Ushbu maqsadlarga qariyb 430 milliard so'm miqdoridagi kapital qo'yilmalar, jumladan, 250 milliard so'mdan ortiq uzoq muddatli imtiyozli kreditlar yo'naltirildi. Dasturni amalga oshirish boshlanganidan buyon yangi massivlarda qishloq aholisining qulay va munosib yashashi uchun zarur bo'lgan 165 ta ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obyekti barpo etildi.

Ayni paytda yangitdan qurilayotgan turar-joy massivlarida zamonaviy turdagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari ham jadal bunyod qilinmoqda. 103 kilometrdan ortiq gaz, qariyb 100 kilometrlik suv tarmoqlari, 71 kilometrdan ziyod elektr uzatish liniyalari, shuningdek, umumiy uzunligi 85 kilometr bo'lgan ichki yo'llar qurildi.

Ichimlik suvi, elektr va gaz ta'minoti, shuningdek, aholi punktlarining sanitariya ahvolini yaxshilash bo'yicha yangi kommunal infratuzilma tarmoqlari va obyektlarini qurish, modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish ishlari tizimli asosda olib borilmoqda.

1.2 Yosh oilalarni yakka tartibda uy-joy bilan ta'minlash va uni moliyalashning me'yoriy xuquqiy asoslari.



O'zbekiston aholisining juda katta qismi qishloqlarda yashaydi. Shu bois ham Prezidentimiz tomonidan qishloqlarda boshlangan uy-joy islohoti juda muhim ahamiyatga ega. Sobiq ittifoq davrida, qishloqda quriladigan xususiy uy-joylarga umuman e'tibor yo'q edi. Uylar pala-partishlik bilan tiklangan.

Ularning na tartibi, na loyihasi, bo'lmasdi.

Hatto ayrim hovlilarning darvozasi ham yo'q edi.

Prezidentimizning yakka tartibda uy-joylar qurish to'g'risidagi qarori chiqqach, yarmarka o'tkazilib, unda ko'plab loyihalar namoyish etildi.

Mamlakatimiz rahbarining g'oyasi asosida 3 xil loyiha ishlab chiqildi. Bular 3, 4 va 5 xonali uylar bo'lib, umumiy maydoni 6 sotix qilib belgilandi.

Ushbu uylarning loyihalarini tayyorlashda urf-odatlarimiz va zamonaviy arxitektura talablari to'liq hisobga olingan.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, mazkur islohot tufayli qishloqlarimiz ham shaharlarimizdan qolishmaydigan infratuzilmaga ega bo'ldi.

Bugun qishloqlarimizdagi turar-joy massivlarida uy-joylar, tashqi muhandislik va transport-kommunikatsiya tizimi, ijtimoiy va bozor ob'ektlari bilan yanada mukamallik kasb etmoqda. Bu ishlarni moliyalash, qurilish ishlari hukumatimiz e'tibor markazida turibdi. Mazkur uy-joylar sifatli qurilish materiallaridan qurilmoqda. Bu uylar bir necha avlodlarga xizmat qiladi.

Prezidentimizning «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonining 4-bandi qishloq joylarda «Qishloq qurilish bank» OATB kreditlari hisobidan yakka tartibda imorat quruvchilarga nisbatan ham tatbiq etilmoqda.

Mazkur norma soliq kodeksining 179-moddasi 30-bandiga kiritilib, unga ko'ra, jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari «Qishloq qurilish bank» OATBdan yakka tartibda uy-joy qurish uchun olingan ipoteka kreditlari hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan summasiga soliq solinmasligi belgilab qo'yildi.

Agar jismoniy shaxs namunaviy loyiha bo'yicha uy-joy qurish uchun 30 million so'm ipoteka krediti rasmiylashtirsa unga kredit olti oydan iborat imtiyozli davr bilan 15 yil muddatga, yillik 7 foiz to'lash sharti bilan beriladi.

Jismoniy shaxs tomonidan olingan kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun to'lovlar bir oyga 317,0 ming so'mni tashkil etadi.

Jismoniy shaxsga 2012 yil yanvar oyida 600,0 ming so'm ish haqi hisoblandi va ish beruvchi – korxona uning arizasiga asosan kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun bankka 317,0 ming so'm o'tkazib berdi.

Ushbu holatda, jismoniy shaxsning soliq solinadigan daromadi 317,0 ming so'mga kamaytiriladi va qolgan 283,0 ming so'midan daromad solig'i ushlanadi. Ya'ni, imtiyoz qo'llanilmaganda jismoniy shaxs 600,0 ming so'm daromadidan 74,0 ming so'm daromad solig'i to'lashi lozim bo'lsa, mazkur imtiyoz natijasida jismoniy shaxsdan olinadigan daromad solig'i summasi 25,5 ming so'mni tashkil qiladi yoki u 48,5 ming so'mga daromad solig'ini kam to'laydi.

Bank kreditlari farovonlikni oshirishga xizmat qiladi

2011 yilning o'zida namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 1 million 100 ming kvadrat metrga teng 7 ming 400 xususiy uy-joy qurib bitkazildi. Bu maqsad uchun 576 milliard so'mlikdan ortiq investitsiyalar yo'naltirildi, ularning 63 foizdan ziyodini markazlashtirilgan manbalar va «Qishloq qurilish

bank” mablag‘lari tashkil etadi. 2012 yilda esa umumiy turar joy maydoni 1 million 200 ming kvadrat metrdan ortiq 8 ming 510 yakka tartibdagi uy-joy qurilishi rejalashtirilgan.

Bu mavzuda so‘z yuritganda yangi posyolkalarni barpo etish kompleks yondashuv asosida amalga oshirilayotganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Yangi qishloqlarda davlat mablag‘lari hisobidan oldindan tasdiqlangan kompleks rejalarga muvofiq vodoprovod, tabiiy gaz tarmoqlari, elektr liniyalari, ichki yo‘llar qurilmoqda, ijtimoiy infratuzilma obyektlari – qishloq vrachlik punktlari, umumta’lim maktablari, xizmat ko‘rsatish va servis obyektlari foydalanishga topshirilmoqda.

Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish bo‘yicha mamlakatimizda yaratilgan mexanizm xalqaro moliya institutlarida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Misol uchun, ushbu dasturning amalga oshirilishida Osiyo taraqqiyot banki (OTB) faol ishtirok etmoqda. OTB qishloqda yakka tartibdagi uy-joylar qurilishiga 500 million AQSH dollari miqdorida, jumladan, 2012 yilda 200 million dollar investitsiya kiritishni rejalashtirmoqda.

Inson manfaatlarini ta’minlash, aholiga munosib turmush sharoitini, yangi qulayliklarni yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar o‘zining yuksak samaralarini bermoqda. “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi asosida qisqa vaqt ichida qishloq joylarda qurilish olib borish uchun uzoq istiqbolga mo‘ljallangan, loyihalashtirish, sanoat-qurilish, muhandislik-texnik jihatdan kuchli baza yaratildi. Uni moliyalash manbalari va mablag‘ ajratish mexanizmi belgilandi.

Bugungi kunda namunaviy loyihadagi xususiy uy-joylar “Qishloqqurilishloyiha” loyiha-qidiruv instituti tomonidan tayyorlanib, Shaharsozlik kengashi tomonidan tasdiqlangan 3, 4 va 5 xonali uy-joylar loyihasi asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur namunaviy loyihalar asosida barpo etiladigan uy-joylar “Qishloq

qurilish bank”ning imtiyozli kredit mablag‘lari va yakka tartibda uy-joy quruvchilarning mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Fuqarolar taklif etilayotgan uchta loyihadan o‘zlariga ma’qulini tanlaydilar. Shundan so‘ng “Qishloq qurilish invest” ixtisoslashtirilgan sho‘ba injiniring kompaniyasining tegishli filiali bilan “tayyor holda topshirish” shartlari asosida tuzilgan shartnomaga muvofiq qurilish ishlari kompleks tashkil etiladi.

“Qishloq qurilish bank” tomonidan o‘z mablag‘lari va Osiyo taraqqiyot bankining qarz mablag‘lari hisobidan namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylarni qurish uchun kreditlar bir yillik imtiyozli davr bilan 15 yil muddatga yillik 7 foizli stavka bo‘yicha beriladi.

“Qishloq qurilish bank” bunday kreditni quyidagi shartlar asosida ajratadi:

- Bank tomonidan imtiyozli ipoteka kreditlari shartnoma asosida quyidagi talablarga javob beruvchi qarz oluvchiga (birgalikda qarz oluvchilarga) beriladi:
- qishloq joylarda doimiy yashaydigan, ipoteka krediti olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga;
- oxirgi o‘n ikki oy mobaynida qonun hujjatlarida taqiqlanmagan doimiy daromadga ega bo‘lgan hamda ipoteka krediti bo‘yicha hisoblangan foiz va asosiy qarzni to‘lash uchun yetarli daromad manbaiga ega bo‘lgan shaxslarga;
- tanlangan uy-joy smeta qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang‘ich badal uchun mablag‘ga ega bo‘lgan shaxslarga;
- kredit tashkilotlaridan kreditlar bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan qarzi bo‘lmagan shaxslarga.

Quyidagilar shaxslar bilan birgalikda qarz oluvchi bo‘lishi mumkin:

– Qarz oluvchining ipoteka krediti va kredit bo'yicha foizlarning har oydagi to'lovlarida qatnashadigan, shuningdek, ipoteka krediti yuzasidan birgalikda javob beradigan (eri, xotini) hamda uning yaqin qarindoshlari (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, farzandlari hamda boshqa shaxslar) birgalikda qarz oluvchi bo'lishi mumkin.

Kredit quyidagi muddatga va quyidagi miqdorda beriladi:

– Ipoteka kreditlari bir yildan iborat imtiyozli davr bilan 15 yilgacha muddatga, amalda bo'lgan eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda yiliga 7 foiz ustama to'lash sharti bilan ajratiladi.

Bunda kredit oluvchi ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badalni to'lash uchun o'z mablag'lariga ega bo'lishi lozim.

Ipoteka kreditini rasmiylashtirish quyidagi tartibda bo'ladi:

– Ipoteka krediti olish uchun mijoz "Qishloq qurilish bank"ning o'zi yashaydigan joydagi tuman (shahar) filiali yoki minibankiga murojaat qilishi mumkin va quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

– kredit olishga buyurtmanoma;

– qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar) pasportining nusxasi;

– yashash joyidan oila tarkibi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

– qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar)ning moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi hujjatlar;

– tanlangan loyiha qiymatining 25 foizidan kam bo'lmagan miqdorida pul mablag'lari jamg'arilganligi to'g'risida ma'lumotnoma;

– “Qishloq qurilish invest” ixtisoslashtirilgan sho‘ba injiniring kompaniyasi bilan buyurtmachi vazifasini bajarish uchun tuzilgan dastlabki shartnoma.

Quyidagi hujjatlar qarz oluvchining moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi:

– Doimiy ish joyiga ega bo‘lganlar uchun xodimning oxirgi o‘n ikki oy mobaynidagi daromadlari to‘g‘risida qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar) va oila a‘zolari ishlaydigan korxona (muassasa) tomonidan belgilangan shaklda berilgan ma’lumotnoma ana shunday hujjat hisoblanadi.

Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar manbaiga ega bo‘lgan fuqarolar esa o‘zlarining yashash joyidagi davlat soliq xizmati organi tomonidan tasdiqlangan oxirgi o‘n ikki oy mobaynidagi daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyalar nusxalarini taqdim etadilar.

Dehqon fermer xo‘jaliklari rahbarlari hisoblanadigan yoki yuridik shaxs bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan fuqarolar oxirgi o‘n ikki oy mobaynidagi daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni taqdim etadilar.

Namunaviy loyihalar asosida barpo etiladigan uy-joylar qurilishi quyidagi tartibda moliyalashtiriladi:

– Qurilishni moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobidan uch bosqichda amalga oshiriladi:

Boshlang‘ich badal – qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar) nomiga “Qishloq qurilish bank”da ochilgan uzoq muddatli jamg‘arib boriladigan omonat hisobraqamiga qo‘yilgan pul mablag‘lari shaklidagi tanlangan uy-joy qiymatining kamida 25 foizi miqdoridagi pul mablag‘lari.

Boshlang‘ich badal mablag‘lari qarz oluvchi va birgalikdagi qarz oluvchilarning banklardagi omonat mablag‘lari, shaxsiy plastik kartochkalaridagi mablag‘lari

yoki uning ish beruvchisining qarz yoki homiylik mablag‘lari hisobidan shakllantirilishi mumkin. Ushbu mablag‘lar qarz oluvchi nomiga ochilgan “Qurilishga sarmoya” omonat hisobraqamida jamg‘arib boriladi hamda qurilish ishlari boshlangach, mablag‘ egasining arizasiga asosan “Qishloq qurilish invest” kompaniyasi hisobraqamiga o‘tkaziladi.

Imtiyozli ipoteka krediti – har bir qarz oluvchiga eng kam ish haqining 1000 baravarigacha miqdorda ajratiladigan imtiyozli ipoteka krediti mablag‘lari.

Yakuniy hisob-kitob mablag‘lari – uy-joy narxining boshlang‘ich badal va kredit hisobidan qoplanmagan qismi.

Mazkur mablag‘lar qurilish ishlari boshlanganidan to yakunlangunga qadar mijoz tomonidan bosqichma-bosqich shakllantirib borilishi lozim. Yakuniy hisob-kitob mablag‘lari qarz oluvchi va birgalikdagi qarz oluvchilarning banklardagi omonat mablag‘lari, shaxsiy plastik kartochkalaridagi mablag‘lari yoki ish beruvchisining qarz yoki homiylik mablag‘lari hisobidan ham shakllantirilishi mumkin.

Kreditning foizini va asosiy summasini to‘lash tartibi quyidagicha:

– Kreditga foizlar kredit ajratilgan sanadan boshlab kunlik hisoblab boriladi va har oyda mijoz tomonidan to‘lab borilishi kerak, biroq kredit bo‘yicha asosiy qarz summasini to‘lash bo‘yicha bir yillik imtiyozli davr belgilanadi. Bunda kredit va unga hisoblangan foiz mablag‘larni quyidagi manbalardan to‘lash mumkin:

– ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, pensiyalar, gonorarlar, dividendlar, foizlar va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha olinadigan boshqa daromadlar hisobiga naqdsiz shakldagi pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan;

- qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar)ning bankdagi omonatlari bo'yicha hisobraqamlaridan naqdsiz shakldagi pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan;
- bank plastik kartochkalaridan pul mablag'larini naqdsiz to'lash yo'li bilan;
- naqdsiz shakldagi pul mablag'larini qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar)ning ish beruvchisi tomonidan moddiy yordam mablag'lari va ipoteka kreditini to'lash uchun ajratilgan boshqa mablag'lar hisobidan pul o'tkazish yo'li bilan;
- fermer xo'jaliklarining yil yakuniga ko'ra shaxsiy tasarrufiga o'tadigan daromadlari hisobidan pul o'tkazish yo'li bilan, agar u qarz oluvchi yoki birgalikda qarz oluvchilar deb hisoblangan taqdirda;
- naqd pul topshirgan holda;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan to'lanadi.

Kreditni muddatidan oldin qaytarish tartibi quyidagicha:

- Qarz oluvchi yoki birgalikda qarz oluvchilar bankdan olingan ipoteka krediti bo'yicha qarzдорlikni muddatidan oldin qaytarishi mumkin bo'lib, ular tomonidan kredit mablag'lari muddatidan oldin qaytarilganligi uchun qo'shimcha komission to'lovlar undirilmaydi.

“Qishloq qurilish invest” ixtisoslashtirilgan injiniring kompaniyasining uy-joy qurilishidagi ishtiroki quyidagicha:

- “Qishloq qurilish bank”ning “Qishloq qurilish invest” ixtisoslashtirilgan injiniring kompaniyasi yakka tartibda uy-joy quruvchi bilan “tayyor holda topshirish” shartlari asosida, tasdiqlangan namunaviy loyiha bo'yicha uy-joy qurish bo'yicha ishlarning butun kompleksini tashkil etadi.
- Bunda, avvalo, uyuyjoy qurish istagini bildirgan yakka tartibdagi uy-joy

quruvchi bilan injiniring kompaniyasi o'rtasida uy-joy qurishga buyurtmachi funksiyasi amalga oshirilishi uchun dastlabki shartnoma tuziladi.

Yakka tartibda quruvchi tomonidan dastlabki badal bankda shakllantirilib, bank tomonidan ipoteka krediti berilishi yuzasidan qaror qabul qilingandan keyin yakka tartibdagi uy-joy quruvchi bilan injiniring kompaniyasi o'rtasida asosiy shartnoma imzolanadi.

Kompaniya barcha buyurtmalarni qabul qilib, ularni umumlashtirib pudrat tashkilotlari o'rtasida tanlov shartlarini e'lon qiladi va g'olib deb топилган pudrat tashkiloti bilan shartnoma tuziladi.

Uy-joy qurilishi jarayoni quyidagicha nazorat qilinadi:

– Mijoz butun qurilish davrida qurilish jarayoniga xalaqit bermagan holda qurilishning borishini kuzatib borish hamda zarurat bo'lganida namunaviy loyiha doirasida yozma shaklda takliflar kiritish va injiniring kompaniyasi va pudratchiga e'tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Bundan tashqari, uy-joy qurilishida loyihaga amal qilinishini namunaviy loyihani tayyorlagan va muallif nazoratini amalga oshirgan loyiha tashkiloti kuzatib boradi.

Yakka tartibda uy-joy qurilishi o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishining nazorati bevosita “Qishloq qurilish invest” injiniring kompaniyasi tomonidan bajariladi.

Yakka tartibdagi uy-joy quruvchiga yer uchastkasi quyidagi tartibda ajratiladi:

– “Qishloq qurilish invest” injiniring kompaniyasi va yakka tartibdagi uy-joy quruvchi o'rtasida shartnoma imzolanganidan so'ng yakka tartibda imorat quruvchiga yer uchastkasini ajratish tuman (shahar) hokimining qarori bilan

kimoshdi savdosi o'tkazilmasdan umrbod meros qilib qoldiriladigan mulk tarzida rasmiylashtiriladi.

Mahalliy hokimliklarga yer ajratish bo'yicha murojaat injiniring kompaniyasi filiali tomonidan kiritiladi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu tartib shu yildan boshlab joriy qilingan bo'lib, avvalgi yillarda yer uchastkasi fuqaroga uy-joy qurilishi tugallangandan so'ng ajratilar edi.

Kredit qaytarilishi quyidagicha ta'minlanadi:

Kredit ta'minoti sifatida yakka tartibda quruvchiga ajratiladigan yer uchastkasi kelgusida quriladigan uy-joy bilan garovga qo'yiladi. Garovga qo'yish, ya'ni ipoteka shartnomasi qurilish boshlangunga qadar tuzilishi lozim.

Ipoteka kreditidan foydalanuvchilar uchun bir necha imtiyozlar ko'zda tutilgan:

- “Qishloq qurilish bank”dan yakka tartibda uy-joy qurish uchun olingan ipoteka kreditlari va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan summa daromad solig'i to'lanishidan ozod qilinadi, mazkur imtiyoz birgalikda qarz oluvchiga ham tatbiq etiladi;
- ipoteka kreditlari bir yildan iborat imtiyozli davr bilan 15 yilgacha muddatga, amalda bo'lgan eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda yiliga 7 foiz ustama to'lash sharti bilan ajratiladi;
- xo'jalik subyekti – ish beruvchidan uy-joy sotib olish uchun olingan mablag'lar daromad solig'i to'lashdan ozod qilinadi;
- bundan tashqari, xo'jalik subyektlari yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga yoki uy-joy sotib olishga tekin

berilgan mablagʻlari summasi daromad soligʻi yoki yagona soliq toʻlovini hisoblashda soliqqa tortiladigan bazani teng hajmda, ammo soliqqa tortiladigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda, kamaytirishi mumkin.

Shuningdek, uy-joy sotib olingan (mulk huquqi davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan) kundan boshlab besh yil ichida sotilsa, jismoniy shaxsning daromadlari belgilangan tartibda soliqqa tortiladi.

Taʼkidlash joizki, qishloq qurilishi boʻyicha aniq maqsadli dastur asosida izchil davom etayotgan xayrli ishlar xalqimizning hech kimdan kam boʻlmay yashashi, munosib hayot kechirishiga xizmat qilmoqda. Bularning barchasi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida qishloqlarimiz qiyofasini yaxshilash, qishloqda turmush darajasini, odamlarning turmush madaniyatini yuksaltirish maqsadida izchillik bilan amalga oshirilayotgan ezgu ishlarning amaliy ifodasidir.

Yakka tartibdagi uy-joy qurishga buyurtmachi funkuiyasini amalga oshirish toʻgʻrisida dastlabki shartnoma quyidagicha boʻladi:

**Yakka tartibdagi uy-joy qurishga buyurtmachi
funkuiyasini amalga oshirish to'g'risida
_____ - son DASTLABKI SHARTNOMA**

201__y. «__» _____

(aholi punkti)

Pasport seriyasi _____ № _____
_____ tomonidan _____ y. «__» _____ da
berilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi

_____ (keyingi o'rinlarda –
«**Yakka tartibdagi quruvchi**») bir tomondan va «Qishloq qurilish invest»
ixtisoslashtirilgan sho''ba injiniring kompaniyasi nomidan Nizom va 201__ y.
«__» _____ dagi _____ - sonli bosh ishonchnoma asosida faoliyat
yurituvchi _____ filiali direktori
_____ (keyingi o'rinlarda –
«**Buyurtmachi**») ikkinchi tomondan, birgalikda «**Tomonlar**», deb
nomlanuvchilar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Tomonlar OATB «Qishloq qurilish bank»
_____ filiali (keyingi o'rinlarda – Bank) tomonidan
Yakka tartibdagi quruvchiga ipoteka krediti berish to'g'risida ijobiy qaror qabul
qilingan va bu haqdagi ma'lumot Buyurtmachiga taqdim etilgan paytdan
boshlab 10 (o'n) ish kuni mobaynida O'zbekiston Respublikasi,
_____ viloyati,
_____ aholi punkti manzilida
joylashgan er massivida _____-sonli namunaviy loyiha bo'yicha
quriladigan, ____ xonadan iborat uy-joyni qurishga buyurtmachi funkuiyasini

amalgaga oshirish to'g'risida shartnomasini (keyingi o'rinlarda – asosiy shartnoma) tuzish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

2. MUHIM SHARTLAR

2.1. Tomonlar quyidagilarni asosiy shartnomaning muhim shartlari deb hisoblashga kelishib oldilar:

2.1.1. Buyurtmachiga topshiriladigan uy-joyning qurilishi qiymati potentsial pudratchilarni tanlash natijalari bo'yicha belgilanadi va ko'pi bilan _____) so'mni tashkil etadi;

2.1.2. Buyurtmachi «tayyor holda topshirish» shartlarida uy-joy qurish bo'yicha buyurtmachi funkuiyasini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, va namunaviy loyihaga muvofiq uy-joy qurish bo'yicha barcha ishlarni pudratchilarni jalb qilgan holda va o'z mablag'lari va/yoki jalb etilgan mablag'lar bilan bajarish majburiyatini, Yakka tartibdagi quruvchi esa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarish, shu jumladan shartnomada kelishilgan bahoni to'lash, shuningdek qurilish ishlari tugaganda uy-joyni qabul qilib olish majburiyatini oladi;

2.1.3. SHartnomada nazarda tutilgan qurilishning davom etish vaqti va ishlarni bajarish muddatlari, pudratchini tanlov asosida tanlash natijalariga muvofiq belgilanadi. Ishlarni tugallash muddati – 201__y. «__»_____;

2.1.4. Buyurtmachi uy-joy qurish buyurtmalarini pudratchilar o'rtasida tanlov asosida joylashtirish majburiyatini oladi, potentsial pudratchini xukumat qarori bilan aniqlash hollari bundan mustasno.

2.1.5. Tasdiqlangan loyihaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni Buyurtmachi o'z zimmasiga olmaydi.

3. HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Uy-joy qiymatini to'lash Bankning imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan, shuningdek Yakka tartibdagi quruvchining o'z mablag'lari va/yoki qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

3.2. Bank kredit komissiyasi ipoteka krediti berish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilgandan so'ng Yakka tartibdagi quruvchi Bank bilan kredit shartnomasi tuzadi.

3.3. Yakka tartibdagi quruvchi tomonidan uy - joy qiymatini to'lash Bank tomonidan bir bank kuni mobaynida asosiy shartnomada nazarda tutilgan tartibda Yakka tartibdagi quruvchining yozma topshiriqnomasi asosida 22626-son «Korxonalar va tashkilotlarning maqsadli mablag'lari» Buyurtmachining moliyalashtirish maxsus depozit hisob raqamiga pul mablag'larini naqd pulsiz shaklda o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

4.1. Mazkur shartnoma Tomonlar uni imzolagan kundan boshlab amalga kiradi va Tomonlar uning shartlarini bajargunga qadar amal qiladi.

4.2. Asosiy shartnoma tuzilishi tomonlar shartnoma narsasiga nisbatan asosiy shartnoma tuzilguniga qadar og'zaki yoki yozma shaklda amalga oshirgan boshqa barcha majburiyatlarni bekor qiladi va haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi.

4.3. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlar quyidagi hollarda tugatiladi:

– Tomonlar asosiy shartnomani tuzishlari lozim bo'lgan muddat tugagunga qadar uni tuzmaganda;

5. YAKUNIY QOIDALAR

5.1. Tomonlarning har biri o'z majburiyatlarini lozim darajada, mazkur shartnoma shartlariga muvofiq bajarishi lozim.

5.2. Buyurtmachi kredit olishda Yakka tartibda quruvchiga imkon qadar yordam ko'rsatishi lozim.

5.3. Asosiy shartnomani tuzishdan asossiz ravishda bosh tortgan Tomon boshqa Tomonga bu tufayli etkazilgan zararlarni qoplashi shart.

5.4. Mazkur shartnomaga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish va uni bekor qilish tomonlarning yozma kelishuvi asosida yoki sud qarori bo'yicha amalga oshiriladi.

5.5. Tomonlarning mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan nizolari ularning kelishuvi bo'yicha hal etiladi, bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda sud tomonidan hal etiladi.

6. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

**Yakka tartibdagi
quruvchi:**

Buyurtmachi:

(F.I.O. to'liq)

(filialning to'liq nomi)

(indeks, manzil, tel.)

(indeks, manzil, tel.)

(tug'ilgan vaqti)

(bank rekvizitlari)

(tug'ilgan joyi)

(STIR)

(STIR)

(filial direktorining F.I.O.)

M. _____

Imzo

O'.

Imzo

II. YOSH OILALARNI UY-JOY BILAN TA'MINLASHNING USTUVOR YUNALISHLARI VA UNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI.

2.1. Bank kreditlarining yosh oilalarni zamonaviy uy-joy bilan ta'minlashdagi ahamiyati.

Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida inson manfaatlarini ta'minlash, yurtdoshlarimizga munosib turmush sharoitlarini, yangi qulayliklarni yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar o'zining yuksak samaralarini bermogda, "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturi asosida qisqa vaqt ichida qishloq joylarda qurilish olib borish uchun uzoq istiqbolga mo'ljallangan, loyihalashtirish, sanoat-qurilish, muhandislik-texnik jihatdan kuchli baza yaratildi. Uni moliyalash manbalari va mablag' ajratish mexanizmi belgilandi.

Yurtboshimiz rahnamoligida qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirish va yangilash, uy-joy, zarur ijtimoiy va kommunal ob'ektlar, kommunikatsiyalarni barpo etish maqsadida davlatimiz rahbarining 2009 yil 3 avgustda qabul qilingan "Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Qishloq aholisini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha yaratilgan bu yangi tizimning qulayliklari, "Qishloq qurilish bank" tomonidan namunaviy loyiha asosida yakka tartibda uy-joy qurish uchun uzoq muddatli imtiyozli kredit ajratish tartib-qoidalari yuzasidan "Qishloq qurilish bank" ochiq aktsiyadorlik tijorat banki keng ko'lamli tushuntirish ishlari olib bormogda.

Kelgusi yilda barpo etilishi rejalashtirilgan namunaviy loyihadagi uy-joylar "Qishloqqurilishloyiha" loyiha-qidiruv instituti tomonidan ishlangan 3, 4 va 5 xonali uy-joylar loyihasi asosida amalga oshiriladi. Mazkur namunaviy loyihalar asosida barpo etiladigan uy-joylar "Qishloq qurilish bank"ning imtiyozli kredit mablag'lari va yakka tartibda uy-joy quruvchilarning

mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Fuqarolar taklif etilayotgan 3 loyihadan o'zlariga ma'qulini tanlaydilar. Shundan so'ng "Qishloq qurilish invest" ixtisoslashtirilgan sho'ba injiniring kompaniyasi bilan «tayyor holda topshirish» shartlari asosida tuzilgan shartnomaga muvofiq qurilish ishlari kompleks tashkil etiladi.

Bank tomonidan imtiyozli ipoteka kreditlari shartnoma asosida hamda maqsadli, ta'minlanish, qaytarish, to'lash va muddatlilik shartlari bilan quyidagi talablarga javob beruvchi qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar)ga beriladi:

- qishloq joylarda doimiy yashaydigan doimiy ish joyiga ega bo'lgan, ipoteka krediti olish uchun murojaat qilgan kunida 18 Yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga;

- oxirgi o'n ikki oy mobaynida qonun hujjatlarida taqiqlanmagan doimiy daromadga ega bo'lgan hamda ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan foiz va asosiy qarzni to'lash uchun etarli daromad manbaiga ega bo'lgan shaxslarga;

- tanlangan uy-joy smeta qiymatining kamida 25 foizi miqdorida boshlang'ich badal uchun mablag'ga ega bo'lgan shaxslarga;

- kredit tashkilotlaridan kreditlar bo'yicha to'lov muddati o'tgan qarzi bo'lmagan shaxslarga beriladi.

Qarz oluvchining ipoteka krediti va kredit bo'yicha foizlarning har oydagi to'lovlarida qatnashadigan, shuningdek, ipoteka krediti yuzasidan birgalikda javob beradigan (eri, xotini) hamda uning Yaqin qarindoshlari (otanasini, aka-ukalari, opa-singillari, farzandlari) birgalikda qarz oluvchi bo'lishi mumkin.

Ipoteka kreditlari olti oydan iborat imtiyozli davr bilan 15 yilgacha muddatga, amalda bo'lgan eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan oshmaydigan miqdorda yiliga 7 foiz ustama to'lash sharti bilan ajratiladi.

Bunda kredit oluvchi ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badalni to'lash uchun o'z mablag'lariga ega bo'lishi lozim.

Ipoteka krediti olish uchun mijoz “Qishloq qurilish bank”ning o’z yashash joyidagi tuman (shahar) filiali yoki minibankiga murojaat qilishi mumkin va quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- kredit olishga buyurtmanoma;
- qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar) pasportining nusxasi;
- yashash joyidan oila tarkibi to’g’risidagi ma’lumotnoma;
- qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar)ning moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi hujjatlar;
- tanlangan loyiha qiymatining 25 foizidan kam bo’lmagan miqdorida pul mablag’lari jamg’arilganligi to’g’risida ma’lumotnoma;
- “Qishloq qurilish invest” ixtisoslashtirilgan sho’ba injiniring kompaniyasi bilan buyurtmachi vazifasini bajarish uchun tuzilgan dastlabki shartnoma.

Doimiy ish joyiga ega bo’lganlar uchun xodimning oxirgi o’n ikki oy mobaynidagi daromadlari to’g’risida qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar) va oila a’zolari ishlaydigan korxona (muassasa) tomonidan belgilangan shaklda berilgan ma’lumotnoma ana shunday hujjat hisoblanadi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi davlat tijorat Xalq banki filialida ochilgan yakka tartibdagi jamg’arma pensiya hisobraqamidan ko’chirma (agar jamg’arma pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etsa) – zaruriyat bo’yicha bank talabiga ko’ra taqdim etiladi.

Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar manbaiga ega bo’lgan fuqarolar esa o’zlarining yashash joyidagi davlat soliq xizmati organi tomonidan tasdiqlangan oxirgi o’n ikki oy mobaynidagi daromadlar to’g’risidagi deklaratsiyalar nusxalarini taqdim etadilar.

Dehqon/fermer xo’jaliklari boshliqlari hisoblanadigan yoki yuridik shaxs bo’lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanadigan fuqarolar oxirgi o’n ikki oy mobaynidagi daromadlari to’g’risidagi deklaratsiyalardan tashqari, agar ular amalga oshiradigan faoliyat turlari qonun hujjatlariga muvofiq

liqenziyalanishi kerak bo'lsa, faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnoma va liqenziyaning nusxalarini ham taqdim etadilar.

Qurilishni moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobidan uch bosqichda amalga oshiriladi:

Boshlang'ich badal – qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar) nomiga “Qishloq qurilish bank”da ochilgan uzoq muddatli jamg'arib boradigan omonat hisob raqamiga qo'yilgan pul mablag'lari shaklidagi tanlangan uy-joy qiymatining kamida 25 foizi miqdoridagi pul mablag'lari.

Boshlang'ich badal mablag'lari qarz oluvchi va birgalikdagi qarz oluvchilarning banklardagi omonat mablag'lari, shaxsiy plastik kartochkalaridagi mablag'lari yoki uning ish beruvchisining qarz yoki homiylik mablag'lari hisobidan shakllantirilishi mumkin. Ushbu mablag'lar qarz oluvchi nomiga ochilgan “Qurilishga sarmoya” omonat hisob raqamida jamg'arib boriladi hamda qurilish ishlari boshlangach, mablag' egasining arizasiga asosan “Qishloq qurilish invest” kompaniyasi hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

Imtiyozli ipoteka krediti – har bir qarz oluvchiga eng kam ish xaqining 1000 baravarigacha miqdorda ajratiladigan imtiyozli ipoteka krediti mablag'lari.

Yakuniy hisob-kitob mablag'lari – uy-joy narxining boshlang'ich badal va kredit hisobidan qoplanmagan qismi.

Mazkur mablag'lar qurilish ishlari boshlanganidan to yakunlangunga qadar mijoz tomonidan bosqichma-bosqich shakllantirib borilishi lozim. Yakuniy hisob-kitob mablag'lari qarz oluvchi va birgalikdagi qarz oluvchilarning banklardagi omonat mablag'lari, shaxsiy plastik kartochkalaridagi mablag'lari yoki uning ish beruvchisining qarz yoki homiylik mablag'lari hisobidan ham shakllantirilishi mumkin.

Kreditga foizlar kredit ajratilgan sanadan boshlab kunlik hisoblab boriladi va har oyda mijoz tomonidan to'lab borilishi kerak, biroq kredit bo'yicha asosiy qarz summasini to'lash bo'yicha olti oylik imtiyozli davr

belgilanadi. Bunda kredit va unga hisoblangan foiz mablag'larni quyidagi manbalardan to'lash mumkin:

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, gonorarlar, dividendlar, foizlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha olinadigan boshqa daromadlar hisobiga naqdsiz shakldagi pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan;
- qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar)ning bankdagi omonatlari bo'yicha hisobraqamlaridan naqdsiz shakldagi pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan;
- bank plastik kartochkalaridan pul mablag'larini naqdsiz to'lash yo'li bilan;
- naqdsiz shakldagi pul mablag'larini qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchilar)ning ish beruvchisi tomonidan moddiy yordam mablag'lari va ipoteka kreditini to'lash uchun ajratilgan boshqa mablag'lar hisobidan pul o'tkazish yo'li bilan;
- fermer xo'jaliklarining yil yakuniga ko'ra shaxsiy tasarrufiga o'tadigan daromadlari hisobidan pul o'tkazish yo'li bilan, agar u qarz oluvchi yoki birgalikda qarz oluvchilar deb hisoblangan taqdirda;
- naqd pul topshirgan holda;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan to'lanadi.

Qarz oluvchi yoki birgalikda qarz oluvchilar bankdan olingan ipoteka krediti bo'yicha qarzдорlikni muddatidan oldin qaytarishi mumkin bo'lib, ular tomonidan kredit mablag'lari muddatidan oldin qaytarilganligi uchun qo'shimcha komission to'lovlar undirilmaydi.

“Qishloq qurilish bank”ning “Qishloq qurilish invest” ixtisoslashtirilgan injiniring kompaniyasi yakka tartibda uy-joy quruvchi bilan “tayyor holda topshirish” shartlari asosida, tasdiqlangan namunaviy loyiha bo'yicha uy-joy qurish bo'yicha ishlarning butun kompleksini tashkil etadi.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurish uchun aholiga yaratilgan bunday imtiyoz va qulayliklar xalqimizning turmush

sharoitini yaxshilashga, qishloqlarimizning zamonaviy qiyofa kasb etishiga xizmat qiladi.

IPOTEKA KREDITI

Ipoteka krediti – balogʻat yoshiga yetgan va muomala layoqatiga ega, Oʻzbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyida roʻyxatdan oʻtgan, shuningdek, ipoteka krediti olish imkonini beruvchi doimiy daromad manbaiga ega boʻlgan 18 Yoshga toʻlgan va 55 yoshdan oshmagan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga beriladi.

Ipoteka krediti - 5 yildan 15 yilgacha muddatga beriladi va foiz stavkalari Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Maqsadlari:

- birlamchi va ikkilamchi bozorda qonun hujjatlarida belgilangan normalar va qoidalarga rioya qilgan holda sotilayotgan yakka tartibdagi uy-joyni yoki koʻp kvartirali uydagi kvartirani sotib olish uchun;
- yakka tartibdagi uy-joyni qurish uchun;
- yakka tartibdagi uy-joyni rekonstruksiya qilish uchun.

Shart - sharoitlari:

- ariza beruvchi oʻz nomidan uy - joyni sotib olish (qurish, rekonstruksiya qilish) uchun sotib olinayotgan yoki qurilayotgan uy - joy qiymatining 25 % kam boʻlmagan miqdorida boshlangʻich toʻlov summasini omonatga qoʻyishi kerak;
- kreditga sotib olinayotgan uy- joyni garovga qoʻyish;
- garovga qoʻyilgan uy - joyni sugʻurta qilish;
- qarz oluvchining toʻlov qobiliyati.

Kerakli hujjatlar:

- soʻralayotgan kredit summasini koʻrsatgan holda kredit buyurtmanomasi va qarz oluvchi tomonidan toʻldirilgan anketa soʻrovnomasi;
- pasport;

- ariza beruvchining nomiga ochilgan jamg'arma omonat hisob raqamida pul mablag'lari joylashtirilganligi to'g'risida bank ma'lumotnomasi;
- ariza beruvchining oilasi tarkibi to'g'risida yashash joyidan berilgan ma'lumotnoma, hamda, voyaga yetgan va yetmagan oila a'zolarining shaxslarini tasdiqlovchi hujjatlar;
- qarz oluvchining doimiy ish joyidan ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan mehnat shartnomasi va mehnat daftarchasi nusxasi;
- ariza beruvchining va u bilan birga yashaydigan oila a'zolarining daromadlari to'g'risida oxirgi 12 oy uchun doimiy ish joyidan berilgan ma'lumotnomalar yoki ariza beruvchining va uning oila a'zolarining daromadlari to'g'risida oxirgi 12 oy uchun daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyaning ularning yashash joyidagi davlat soliq idorasi tomonidan tasdiqlangan nusxalari;
- nikoh tuzilganligi yoki uning bekor qilinganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
- sotiladigan yakka tartibdagi uy - joy yoki ko'p kvartirali uydagi kvartiraning kelishilgan qiymati ko'rsatilgan, hamda, uy - joyga yoki kvartiraga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatning nusxasini ilova qilgan holda uy- joyga yoki kvartiraning oldi-sotdisi to'g'risidagi dastlabki shartnoma;

Kredit razmeri:

- yakka tartibdagi uy-joy qurish uchun - eng kam oylik ish haqining 4000 baravarigacha;
- yakka tartibdagi uy-joyini va ko'p kvartirali uydagi kvartirani sotib olish uchun - eng kam oylik ish haqining 3500 baravarigacha miqdorda ajratiladi;
- yakka tartibdagi uy-joyini rekonstruksiya qilish uchun - eng kam oylik ish haqining 2500 baravarigacha.

Yosh oilalar uchun:

Yosh oilaga - har biri 30 Yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tgan Yoshlar kiradi.

Bank tomonidan Yosh oilalarga beriladigan ipoteka krediti quyidagi miqdorlarda beriladi:

- uy qurilishi va sotib olish uchun - qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 3000 baravarigacha;
- uyni rekonstruksiya qilish, shuningdek ko'p kvartirali uydagi kvartirani sotib olish uchun - qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining 2500 baravarigacha.

Ipoteka krediti bo'yicha foiz stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi qayta moliyalash stavkasi doirasida belgilanadi.

Amaldagi qonunchilik asosida Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash maqsadida, Yosh oila a'zolarining ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan foiz va asosiy summalarini qaytarishga yo'naltirilgan ish haqisi bo'yicha daromadlari daromad solig'iga tortilmaydi va to'liqligicha asosiy qarzlarni qaytarishga yo'naltiriladi.

Yosh oilalarga beriladigan ipoteka kreditlari berilganda, asosiy qarzlarni so'ndirilishi bo'yicha uch yillik (xohishiga ko'ra) imtiyozli davr belgilanadi. Ipoteka kreditlari Yosh oilalarga 15 yil muddatga (xohishiga ko'ra) beriladi va bunda kreditni birgalikda so'ndirish imkoniyati mavjud.

Kredit shartnomasi tuzilganidan so'ng, qarz oluvchi taqdim etishi kerak bo'lgan hujjatlar:

- uy - joyga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjat;
- er uchastkasiga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjat;
- sug'urta to'lovlari amalga oshirilganligi haqida hujjat, hamda, sug'urta shartnomasi va sug'urta polisi;
- ipoteka shartnomasi (kreditga sotib olinayotgan uy- joyni garovga qo'yish).

2.2. "Mustaxkam oila yili" davlat dasturi va uning yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashdagi roli.



Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom, ma'naviy etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog'lom oilani shakllantirishda mahallaning mavqeini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida 2012 yilga "Mustahkam oila yili" deb nom berildi.

Avvalo, mamlakatimizda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha yangitdan qabul qilinadigan qonun, qoida va normalarda bugungi va ertangi kunimizning talablari aks etishi, amaldagi qonun hujjatlariga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, bu masalaga jamiyatimizning e'tiborini yanada kuchaytirish ko'zda tutilayotganini ta'kidlash kerak.

Ikkinchidan, barchamiz yaxshi tushunamiz, mustahkam oila va baxtli turmush avvalambor oila quradigan Yoshlarning o'ziga, ularning aql-zakovati, ma'naviy fazilatlariga, oila, jamiyat oldidagi o'z burchi va mas'uliyatini chuqur anglab yetishiga bog'liq.

Bu haqiqatni hech kim inkor etolmaydi. Lekin, endi paydo bo'lgan, katta umid bilan hayotga qadam qo'yayotgan Yosh oilani moddiy va ma'naviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlash, ularga ko'mak, imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berish, avvalo, uy-joy bilan ta'minlash – bularning barchasi uchun nafaqat ota-onalar, birinchi navbatda davlat va jamiyatimiz mas'uldir.

Albatta, bugungi kunda yurtimizda Yosh oilalarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik ulkandir. Shu bilan birga, xolisona tan olishimiz darkor – ana shunday sa'y-harakatlarimizni izchil davom ettirish, qayerda bo'lmasin, markazda, shahar yoki qishloq joylarda bo'ladimi, ezgu maqsadlarimizning har tomonlama tasdig'ini ko'rish uchun hali juda ko'p ishlarni amalga oshirish kerak.

Bu mas'uliyatli vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish birinchi navbatda davlat idoralarining rahbarlari, keng jamoatchiligimiz, turli ijtimoiy tuzilmalarning tashabbusi va amaliy harakatlariga bog'liq ekani barchamizga ayon bo'lishi darkor.

Uchinchidan, "mustahkam oila" degan g'oyaning hayotimizdagi amaliy ifodasini ko'rishda, hech shubhasiz, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idorasi sifatida nom qozongan mahalla tizimining o'rni va ta'siri beqiyosdir. Buning isbotini bugun har qadamda ko'rayotirmiz.

Haqiqatan ham, bunday noyob ijtimoiy tuzilma hozirgi kunda "Mahalla – xalq vijdoni" degan yuksak ta'rifga har taraflama munosib bo'lib bormoqda.

Ayniqsa, Yosh oilani hayotning turli to'fonlaridan asrash, uning mustahkam oyoqqa turib olishi uchun yelkadosh bo'lish, bu borada zarur ko'mak, maslahat ko'rsatishda mahallaning roli va ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi.

Qabul qilinadigan dasturda mahalla idorasining jamiyatimizdagi, kundalik hayotimizdagi mohiyatini kengaytirish va nufuzini yanada oshirish masalalariga alohida ahamiyat berish o'rinlidir.

To‘rtinchidan, Oila oldida turgan vazifalarni har tomonlama amalga oshirish – avvalambor, moddiy, ma’naviy, bugun o‘ta dolzarb bo‘lib borayotgan tarbiyaviy muammolarni yechish, oilaning barcha-barcha tashvishlarini osonlashtirish kabi muhim masalalarni hal etish bilan bog‘liqdir.

Aynan ana shunday masalalarni hal etish har qaysi oilaning yukini hech nolimasdan, hayotga shukrona qilib, o‘z yelkasida ko‘tarib kelayotgan, oila qo‘rg‘onining ham chiroyi, ham charog‘boni bo‘lgan ayol zotining, opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish bilan barobar ekanini esimizdan chiqarmasligimizni istardim. Ana shunday muhim vazifalarni amalga oshirish uchun dasturda aniq chora-tadbirlar ko‘zda tutilishi zarur.

Beshinchidan, biz ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni keng qaror toptirishda, tobora kuchayib borayotgan, bizning milliy tabiatimiz, urf-odatlarimizga mutlaqo zid bo‘lgan har qanday zararli ta’sirlar, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi turishda, azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda oilani mustahkam tayanch deb bilamiz.

Shu borada ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z mustaqil fikriga ega, oqni qoradan ajratishga, taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, ularning sog‘lig‘ini asrash, hayotga yo‘llashda oilaning o‘rnini hech narsa bilan baholab bo‘lmasligini biz yuksak qadrlaymiz.

Shu ma’noda, oila institutining ta’lim-tarbiya sohasi bilan – bu bolalar bog‘chasi yoki maktab bo‘ladimi, litsey-kollejlar yoki oliy o‘quv yurtlari bo‘ladimi – ana shunday muassasalar bilan amaliy hamkorligini yanada kuchaytirish vazifalari dasturda muhim joy egallashi zarur.

Prezidentimizning «Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonining 4-bandi qishloq joylarda «Qishloq qurilish bank» OATB kreditlari hisobidan yakka tartibda imorat quruvchilarga nisbatan ham tatbiq etilmoqda.

Mazkur norma Soliq kodeksining 179-moddasi 30-bandiga kiritilib, unga ko'ra, jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari «Qishloq qurilish bank» OATBdan yakka tartibda uy-joy qurish uchun olingan ipoteka kreditlari hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilgan summasiga soliq solinmasligi belgilab qo'yildi.

Agar jismoniy shaxs namunaviy loyiha bo'yicha uy-joy qurish uchun 30 million so'm ipoteka krediti rasmiylashtirsa unga kredit olti oydan iborat imtiyozli davr bilan 15 yil muddatga, yillik 7 foiz to'lash sharti bilan beriladi.

Jismoniy shaxs tomonidan olingan kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun to'lovlar bir oyga 317,0 ming so'mni tashkil etadi.

Jismoniy shaxsga 2012 yil yanvar oyida 600,0 ming so'm ish haqi hisoblandi va ish beruvchi – korxona uning arizasiga asosan kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun bankka 317,0 ming so'm o'tkazib berdi.

Ushbu holatda, jismoniy shaxsning soliq solinadigan daromadi 317,0 ming so'mga kamaytiriladi va qolgan 283,0 ming so'midan daromad solig'i ushlanadi. Ya'ni, imtiyoz qo'llanilmaganda jismoniy shaxs 600,0 ming so'm daromadidan 74,0 ming so'm daromad solig'i to'lashi lozim bo'lsa, mazkur imtiyoz natijasida jismoniy shaxsdan olinadigan daromad solig'i summasi 25,5 ming so'mni tashkil qiladi yoki u 48,5 ming so'mga daromad solig'ini kam to'laydi.

O'zbekiston aholisining juda katta qismi qishloqlarda yashaydigan Yosh oilalardir. Shu bois ham Prezidentimiz tomonidan qishloqlarda boshlangan uy-joy islohoti juda muhim ahamiyatga ega. Sobiq ittifoq davrida, qishloqda quriladigan xususiy uy-joylarga umuman e'tibor yo'q edi. Uylar pala-partishlik bilan tiklangan. Ularning na tartibi, na loyihasi, bo'lmasdi. Hatto ayrim hovlilarning darvozasi ham yo'q edi.

Yakka tartibda uy-joylar qurish to'g'risidagi qarori chiqqach, yarmarka o'tkazilib, unda ko'plab loyihalar namoyish etildi.

Mamlakatimiz rahbarining g'oyasi asosida 3 xil loyiha ishlab chiqildi. Bular 3, 4 va 5 xonali uylar bo'lib, umumiy maydoni 6 sotix qilib belgilandi.

Ushbu uylarning loyihalarini tayyorlashda urf-odatlarimiz va zamonaviy arxitektura talablari to'liq hisobga olingan.

Bugun qishloqlarimizdagi turar-joy massivlarida uy-joylar, tashqi muhandislik va transport-kommunikatsiya tizimi, ijtimoiy va bozor ob'ektlari bilan yanada mukamallik kasb etmoqda. Bu ishlarni moliyalash, qurilish ishlari hukumatimiz e'tibor markazida turibdi. Mazkur uy-joylar sifatli qurilish materiallaridan qurilmoqda. Bu uylar "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlashning yaqqol isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi ijrosini ta'minlashda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

2012 yil - Mustahkam oila yili, deb e'lon qilingani munosabati bilan qabul qilingan umumdavlat dasturida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish, Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlash, ularning tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishda ko'maklashish, imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berish, avvalo, shinam uy-joylar bilan ta'minlash borasida ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik tijorat banklari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklamoqda.

Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib hayot barpo etish, murakkab va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi o'rin va ta'sirga ega bo'lib bormoqda. Ishbilarmonlar o'z mehnati ortidan munosib turmush sharoitini yaratib, jamiyat farovonligini ta'minlashda munosib ulush qo'shmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgaruvchan bozor talablariga javob beradigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda,

yangi ish o'rinlari tashkil qilish va aholi daromadlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega va bunga bugungi kunda hech kim shubha qilmaydi.

Qayd etildiki, tijorat banklari doimiy ravishda kichik biznes sub'ektlarini, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini bitiruvchi Yoshlarning biznes rejalarini moliyalashtirish masalalariga katta e'tibor qaratib kelmoqda.

Xususan, o'tgan yili tijorat banklari tomonidan soha sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2010 yilga nisbatan 1,5 barobar o'sib, 4 trln. 41 mlrd. so'mni tashkil etdi. Jami kreditlarning 25,6 mlrd. so'mi kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes rejalarini moliyalashtirishga imtiyozli mikrokreditlar sifatida yo'naltirildi. Binobarin, mazkur ko'rsatkichning 2010 yilga nisbatan qariyb 3,2 barobar o'sishi ta'minlandi.

Shuningdek, "Mikrokreditbank" tomonidan kichik tadbirkorlik tuzilmalariga 159,7 mlrd. so'm hajmida yoki 2010 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatildi.

Qishloq joylarda oilaviy biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar miqdori 2010 yilga nisbatan 1,8 barobar o'sib, 54,1 mlrd. so'mdan ortiq bo'ldi.

Joriy yilda ham "Mustahkam oila yili" Davlat dasturiga muvofiq, kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, avvalambor, ularning biznes loyihalarini imtiyozli shartlar asosida kreditlashga katta e'tibor qaratiladi. Soha sub'ektlariga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 4,5 trln. so'm miqdorida mablag'lar yo'naltirish yuzasidan zarur choralar ko'rilmogda.

Mazkur resurslarning 843 mlrd. so'mdan ko'prog'ini mikrokreditlar tashkil etib, bunda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes rejalarini imtiyozli shartlar asosida moliyalashtirishga 28,3 mlrd. so'mdan ortiq mablag'lar yo'naltiriladi.

Shuningdek, Yosh oilalarga ularning tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 68 mlrd. so'mdan ortiq imtiyozli mikrokreditlar ajratiladi.

Ishbilarmon ayollarni qo'llab-quvvatlash, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandlikni rivojlantirish uchun esa 365 mlrd. so'm miqdorida kredit ajratish rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, tijorat banklarida tashkil etilgan Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladigan 40 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar asosan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining yuqori texnologiyali va innovatsiya loyihalarini, shuningdek, uzoq va borish qiyin bo'lgan, mehnat resurslari zich bo'lgan tuman va shaharlarda joylashgan ishlab chiqarish mikrofirmalari, kichik korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, xususan, uy-joy bilan ta'minlash ham banklar diqqat markazida turibdi. Ushbu maqsadlar uchun tijorat banklari mablag'lari hisobiga 2012-2013 yillarda 100 ta 48 kvartirali uy-joy qurilishi rejalashtirildi. Aytish o'rinliki, ushbu zamonaviy uylarni olish uchun ipoteka kreditlari 15 yil muddatga Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan oshmagan foizda taqdim etiladi.

Yosh oilalarning turmush farovonligini oshirish bo'yicha ham aniq chora-tadbirlar ko'rilmogda. Xususan, har bir tijorat bankida "Yosh oilalarga - iste'mol kreditlari" dasturi ishlab chiqildi. Unga muvofiq, Yosh oilalarga eng kam ish haqining 200 baravari miqdorida 3 yil muddatga uzoq muddat foydalaniladigan, vatanimizda ishlab chiqariladigan iste'mol tovarlari uchun kreditlar ajratiladi.

Shu bilan birga, "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaldagi boshqa bir qator qonun hujjatlari mazmun-mohiyati, yaratilgan imtiyozlar, soha sub'ektlari uchun kreditlar ajratish shart-sharoitlarini targ'ib qilish, aholini tadbirkorlik bilan faol

shug'ullanishga jalb qilish uchun joylarda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy uchrashuv va seminarlar tashkil etib borilmoqda. Ma'lumki, joriy yil boshidan buyon Markaziy bank tashabbusi bilan mahalliy hokimliklar ishtirokida biznes-forumlar tashkil qilindi. Ushbu anjumanlarda 7 mingdan ortiq tadbirkorlik sub'ektlari vakillari ishtirok etdi. Kreditlar evaziga yuksak natijalarga erishayotgan ishbilarmonlar tijorat banklari tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. "Eng yaxshi biznes loyiha" ko'rik-tanlovida g'olib chiqqan sohaning yuzlab vakillariga imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha sertifikatlar topshirildi.

Ta'kidlash o'rinliki, aholining, ayniqsa, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va aholi bandligini oshirish omili bo'layotgan bunday tadbirlarni yil davomida o'tkazib borish belgilangan.

Shuningdek, oilaviy biznes va hunarmandlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida tijorat banklari filiallari vakillari respublikaning har bir qishloq (mahalla) fuqarolar yig'inlariga biriktirib qo'yilgan. Ular ham tegishli hududlarda muntazam ravishda amaliy uchrashuvlar o'tkazib bormoqda.

Tijorat banklari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining biznes rejalarini faol moliyalashtirish bilan mamlakatimizda oilalar mustahkamligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar ijrosiga, aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlari tashkil qilishga, shu tariqa aholining turmush farovonligini oshirishga munosib hissa qo'shadi.

Respublika Markaziy banki tomonidan berilgan ma'lumotga qaraganda, keyingi yillarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, ta'lim muassasalari bitiruvchilarining biznes rejalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, o'tgan yili banklar tomonidan kichik biznes sohasiga ajratilgan kreditlar miqdori 2010 yilga nisbatan 1,5 barobarga o'sib, 4 trln. 41 mlrd.

so'mni tashkil etdi. Shu bilan birga qishloq joylarida ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar 2010 yilga nisbatan 1,8 barobarga o'sganligi va 54,1 mlrd. so'mdan oshgani ham e'tiborga molikdir.

«Mustahkam oila yili»da esa kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 4,5 trln. so'm miqdorida mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda. Matbuot anjumanida ta'kidlanganidek, tijorat banklari qoshidagi maxsus jamg'arma hisobidan ajratiladigan 40 mlrd. so'mdan ortiq kredit sarmoyalari tadbirkorlik sub'ektlarining yuqori texnologiyali va innovaion loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mehnat resurslari zich joylashgan tuman va shaharlardagi kichik korxonalar, ishlab chiqarish mikrofirmalari, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish, ularga moddiy va ma'naviy ko'mak berish, jumladan, uy-joy bilan ta'minlash uchun esa 2012-2013 yillar mobaynida tijorat banklari mablag'lari hisobidan 100 ta 48 xonadonli uy-joy qurilishi ko'zda tutilayotir. Eng muhimi, ushbu zamonaviy uylarga ega bo'lish uchun tegishli ipoteka kreditlari 15 yil muddatga Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan oshmagan foizda taqdim etiladi.

III. O'ZBEKIS'TONDA YOSH OILALARNI NAMUNAVIY UY-JOY BILAN TA'MINLASH VA UNI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YULLARI.

3.1 Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash va uni moliyalashning xorij tajribasi.

- 1. Amerika sxemasi**
- 2. Nemis sxemasi**
- 3. Xitoy sxemasi**



Amerika ipoteka sxemasi

XX asr boshida rivojlanib boshladi

ammo uning rivojlanish cho'qqisi Buyuk depressiyadan keying vaqtga to'g'ri keladi.

Xozirgi kunda AQSH dunyodagi ipoteka bozorinig eng rivojlangan davlatiga to'g'ri keladi.Uning miqdori yiliga 400-mlrd ga Yaqindir. Agar Amerika aholisini 300 mln deb olsak kurinib turibdiki fuqarolar xayoti davomida xech bo'lmasa bir marta ipoteka kreditidan foydalangan. AQSH da ipoteka kreditlari davlat federal qo'mitasi tomonidan boshqariladi.Ba'zi shtatlarda o'ta arzon bo'lgan yog'och uylar ko'plab quriladi ammo asosiy sotsial dasturlar ko'proq kam ta'minlangan oilalarga,harbiy veteranlarga va asosan nogironlarga mo'ljallangandir.Ikkilamchi bozorda ipoteka qimmatli qog'ozlarida davlat ulushi 90% foizni tashkil etadi.Asosiy ipoteka

tashkilotlaribu: Ssudaomonat asotsiatsiyalari,Ipoteka va Tijorat banklari va Kredit ittifoqlaridir.

Amerika modelining asosiy o'ziga xos xususiyati shundaki Ipoteka banklarning roli ancha kattadir,ular tabiiyki kreditni qaytarish vaqtini uzoqroq bo'lishini istashadi. Bank xattoki kredit pullarini belgillangan vaqtdan oldinroq to'lagan mijozlarga jarima xam solishadi.

AQSH da kreditlar 3 yildan-30 yilgacha beriladi.Protsent stavkasi 2.5 dan 8% foizgacha,kredit esa ko'chmas mulkning 70% miqdorida beriladi. Amerika ipoteka sxemasi bir qator rivojlangan davlatlarda ommalashgan masalan Kanada, Avstraliya,Filipin va bir qator lotin amerika mamlakatlari shular jumlasidandir.

Nemis ipoteka sxemasi Qurilishomonatiga bog'liq. Bu sistema butun Evropa bo'ylab tarqalgandir.AQSH da uy- joy masalasida ipoteka va tijorat banklari asosiy manba bo'lsa Evropada turar-joyga ega bo'lishning birdanbir yo'li bu ---- Qurilishomonati. Nemis ipoteka sxemasida Qurilishomonati va bank xamkorlikda ish olib boradi. Uy- joyga ega bo'lmoqni bo'lgan fuqaro avvalo bankda xisob raqam ochadi va uch yil ichida oylik maosh yoki boshqa daromadlaridan bankdagi xisobiga pul o'tkazib boradi.Uch yil davomida yig'ilgan pul quriladigan uyning 30% mablag'ini tashkil qilishi kerak.So'ngra bank uy sotib oluvchi va Qurilishomonati tashkiloti urtasida kafil bulib quriladigan uyning qolgan 70% to'laydi. Shundan so'ng uy sotib oluvchi yangi xonadonga ko'chib o'tishi mumkin ammo xonadon bank mulki xisoblanadi. Kredit muddati 10 yildan-36 yilgacha beriladi, yillik stavka 5 % dan 7% gacha bo'ladi. Uy- joyni sotib oluvchi pulni bankka to'lab tugatmaguncha xonadon bank mulki xisoblanadi.

Ba'zi Evropa davlatlarida.Besh yil davomida yig'ilgan pul quriladigan uyning 30% dan 40% gacha mablag'ini tashkil qilishi kerak.So'ngra bank uy sotib oluvchi va Qurilishomonati tashkiloti urtasida kafil bulib quriladigan

uyning qolganini to'laydi. Shundan so'ng uy sotib oluvchi yangi xonadonga ko'chib o'tishi mumkin ammo xonadon bank mulki xisoblanadi. Kredit muddati 12 yildan-18 yilgacha beriladi, yillik stavka 3 % dan 5% gacha bo'ladi. Agar sotib oluvchi kredit pullarini oldinroq to'lasa xech qanday jarima olinmaydi AQSH dan farqli o'laroq.

Xitoy ipoteka sxemasi nemis sxemsaiga Yaqindir va shu bilan birga davlatning ijtimoiy doktrinasiga mos raviishda shakllantirilgan. Xitoyda Uy-joy Aksiyadorlik Jamoasi tashkil qilingan bo'lib u davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi.

Uy-joy Aksiyadorlik Jamoasining faoliyati quyidagicha davlat tashkilotlari foydalanmayotgan binolarni UAJ ga o'tkazadi. Binolar uy-joy aylantirilib kam taminlangan oilalarga juda arzon narxda ijaraga beriladi. Shu bilan birga yangi uy-joy qurishga xam katta etibor berilmoqda jumladan qurilish kompaniyalar ko'plab soliqlardan ozod qilinadi. Ammo bu soha xaliyam Xitoyda oqsamoqda buning sababi davlat tomonidan etarlicha moliyalashtirilmaganligi va ipoteka mexanizmi mukammal ishlab chiqilmaganligidadir.

O'zbekistonda esa «Qishloq qurilish bank» tomonidan uning o'z mablag'lari hisobidan namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylarni qurish uchun kreditlar qishloq aholisiga 15 yil muddatga yillik 7 foizli stavka bo'yicha berilayotganini, bu esa tijorat banklarining ipoteka kreditlari stavkasidan qariyb ikki barobar past bo'lib, mohiyat e'tibori bilan qishloqda yashayotgan oilalarga katta imtiyoz va imkoniyat yaratib berilayotir.

«Qishloq qurilish bank» OATB tomonidan ajratilayotgan kreditlarning qulayligi shundaki, unda qishloq aholisining kreditni qaytarish imkoniyati to'liq hisobga olingan.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda ipoteka kreditlari Markaziy banklar qayta moliyalash stavkasidan bir necha marta yuqori foizlarda ajratiladi.

Masalan, AQShda qayta moliyalash stavkasi yillik 0,25 foiz bo'lsa tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan ipoteka kreditlarining foiz stavkasi yillik 3,45 foizni, Rossiyada esa qayta moliyalash stavkasi 8,0 foizni tashkil qilsa-da, ipoteka kreditlarining foiz stavkasi 12,0 foizni, Germaniyada esa qayta moliyalash stavkasi 1,0 foizni ipoteka kreditlarining foiz stavkasi esa, 3,5 foizni tashkil etadi.

O'zbekistondagi holat esa jahon tajribasida umuman kuzatilmagan. Bunda bosh maqsad qishloq aholisini ijtimoiy muhofaza qilishdir.

3.2. Yosh oilalarni namunaviy loyixa asosida uy-joy bilan ta'minlashning istiqboldagi rejalar.



Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" ma'ruzasida qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurish bo'yicha davlat dasturini amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Qishloq qurilish bank" tomonidan uning o'z mablag'lari va Osiyo taraqqiyot bankining zayom mablag'lari hisobidan namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylarni qurish uchun kreditlar qishloq aholisiga imtiyozli shartlarda, 15 yil muddatga yillik 7 foizli stavka bo'yicha berilmoqda. Bu esa tijorat banklarining ipoteka kreditlari stavkasidan qariyb ikki barobar kam bo'lib, mohiyat e'tibori bilan qishloqda yashayotgan oilalarga katta imtiyoz va imkoniyat yaratib berishga qaratilgandir.

Bugungi kunda qishloqlarda bankning imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan barpo etilayotgan hovli, tomorqa va yordamchi xo'jalik binolariga ega uy-joylarning afzalliklari haqida gapirishga hojat yo'q. Bugun keng va bahavo tabiat qo'ynida shahar uslubida qurilgan zamonaviy uylardan iborat, qishloq

infratizimining barcha elementlari – ko‘cha va yo‘llar, gaz, elektr, shuningdek, sug‘orish tarmoqlariga ega bo‘lgan yangi massivlar tobora ko‘paymoqda.

O‘tgan ikki yildan ziyodroq vaqt mobaynida Jizzax viloyatida namunaviy loyihalar asosida 745 uy-joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Har tomonlama qulay loyihalar asosida, zamonaviy qurilish ashyolaridan qurilgan bunday uylarda yashashni istovchilar ko‘payib borayotir. Ayni paytda ko‘pchilikni ushbu uylarning narxi, kredit olish va uni qaytarish tartiblari qiziqtirmoqda.

Joriy yilda amalga oshirilishi mo‘ljallanayotgan ushbu dastur bo‘yicha seminar ishtirokchilarini qiziqtirayotgan barcha savollarga tegishli mutaxassislar atroflicha javob qaytardi.

Qishloq joylarda xususiy uy-joylarni qurish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirila boshlaganidan buyon, ya’ni so‘nggi ikki yil davomida 15 mingdan ziyod oila har tomonlama qulay yangi uy-joylarga ega bo‘ldi.

Faqat 2011 yilning o‘zida namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 1 million 100 ming kvadrat metrga teng bo‘lgan 7 ming 400 ta xususiy uy-joy qurib bitkazildi. Bu maqsad uchun 576 milliard so‘mlikdan ortiq investitsiyalar yo‘naltirildi, ularning 63 foizidan ziyodini markazlashtirilgan manbalar va “Qishloq qurilish bank” mablag‘lari tashkil etadi.

2012 yilda umumiy turar-joy maydoni 1 million 200 ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan 8 ming 510 ta yakka tartibdagi uy-joy qurilishi rejalashtirilgan, bu esa o‘tgan yilga nisbatan 15 foiz ko‘pdir.

Shu bilan birga, byudjet mablag‘lari hisobidan turar-joy posyolkalarini qurish bo‘yicha oldindan tasdiqlangan kompleks rejalarga muvofiq 425 kilometrdan ziyod vodoprovod tarmog‘i, qariyb 260 kilometr elektr liniyalari, 375 kilometr gaz tarmoqlari va 306 kilometr ichki yo‘llar qurilishi rejalashtirilgan.


Ushbu maqsadlarda yil davomida qariyb 810 milliard so‘mlik kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirish rejalashtirilmoqda. Umuman aytganda, Qishloq

joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirishning 2015-yilgacha mo'ljallangan tasdiqlangan dasturini amalga oshirish ishlariga 2 milliard 200 million AQSh dollari qiymatidagi mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

Dasturning amalga oshirilishida Osiyo taraqqiyot banki faol ishtirok etmoqda. Mazkur bank qishloqda yakka tartibdagi uy-joylar qurilishiga 500 million dollar miqdorida, jumladan, 2012-yilda 160 million dollar investitsiya kiritishni rejalashtirmoqda.

“Qishloq qurilish bank” tomonidan uning o'z mablag'lari va Osiyo taraqqiyot bankining zayom mablag'lari hisobidan namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylarni qurish uchun kreditlar qishloq aholisiga imtiyozli shartlarda, 15-yil muddatga yillik 7 foizli stavka bo'yicha berilmoqda. Bu esa tijorat banklarining ipoteka kreditlari stavkasidan qariyb ikki barobar past bo'lib, mohiyat e'tibori bilan qishloqda yashayotgan oilalarga katta imtiyoz va imkoniyat yaratib berishga qaratilgandir.

Намунавий лойиҳалар асосида қурилаётган уй жойлар сони динамикаси
Number dynamics of the houses being built under standard designs



"Mustahkam oila yili" Davlat dasturiga muvofiq kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, avvalambor ularning biznes loyihalarini imtiyozli shartlar asosida kreditlashga katta e'tibor qaratiladi. Soha sub'ektlariga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 4,5 trln. so'm miqdorida mablag' yo'naltirish bo'yicha zarur choralar ko'rilmogda.

Mazkur resurslarning 843 mlrd. so'mdan ko'prog'ini mikrokreditlar tashkil etib, bunda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes rejalarini imtiyozli shartlar asosida moliyalashtirishga 28,3 mlrd. so'mdan ortiqrok mablag'lar yo'naltiriladi.

Shuningdek, Yosh oilalarga ularning tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 68 mlrd. so'mdan ortiqrok imtiyozli mikrokreditlar ajratiladi. Ishbilarmon ayollarga ko'maklashish, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandlikni rivojlantirish uchun 365 mlrd. so'm miqdorida kredit ajratish rejalashtirilmoqda.

2012 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Oilalarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 111-sonli qaror qabul qilindi.

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 fevraldagi "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-1717-sonli qaroriga muvofiq, mahalliy maishiy texnika ishlab chiqarishning ishlab turgan quvvatlarini kengaytirishga, oilalarga uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni iste'mol krediti sifatida berishga va jamoa bo'lib foydalaniladigan kirxonalarni tashkil etish yo'li bilan xotin-qizlar mehnatining ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida qabul qilindi.

Qarorda 2012-2014 yillarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan elektr-maishiy texnika ishlab chiqarishning prognoz parametrlari tasdiqlangan bo'lib, unda sovutgichlar, maishiy gaz plitalari, kir yuvish mashinalari, televizorlar, kondiçionerlar kabi mahsulotlar nomi nazarda tutilgan. SHuningdek, qaror bilan

2012 yilda qurilayotgan Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi mavzalarida jamoa bo'lib foydalaniladigan kirxonalar tashkil etishning maqsadli parametrlari ham tasdiqlandi.

Xususan, tijorat banklariga:

kir yuvish xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish uchun kir yuvadigan mashina-avtomatlar va boshqa texnologik asbob-uskunalarni sotib olish uchun tadbirkorlik sub'ektlariga belgilangan tartibda kreditlar berish va lizing xizmatlari ko'rsatish uchun maxsus kredit liniyalari ochish;

ajratiladigan iste'mol kreditlariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmaydigan foiz stavkalarini belgilash;

faqat pasportning nusxasi, ish joyidan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma taqdim etilgan holda eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdordagi kreditni 3 yilgacha bo'lgan muddatga rasmiylashtirishni amaliyotga joriy etish yo'li bilan aholiga iste'mol kreditlari ajratish mexanizmini soddalashtirish va takomillashtirish, shuningdek kredit bo'yicha ta'minlash, shu jumladan, uchinchi shaxslarning kafilligida ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tavsiya etildi.

2012 yilda umumiy turarjoy maydoni 1 million 200 ming kvadrat metrdan ortiq 8 ming 510 ta Yakka tartibdagi uy-joy qurilishi rejalashtirilgan.

Aytish joizki, 2011 yilda namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 1 million 100 ming kvadrat metrga teng 7 ming 400 xususiy uy-joy qurib bitkazildi. Bu maqsad uchun 576 milliard so'mlikdan ortiq investitsiyalar yo'naltirildi, ularning 63 foizdan ziyodini markazlashtirilgan manbalar va "Qishloq qurilish bank" mablag'lari tashkil etadi.

Shu yil Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joylarni qurish dasturiga ko'ra 8510 ta uy quriladi, bu 2011-yildagidan 15 foizga ko'p.

O'zbekiston Prezidentining 14-yanvardagi qarori 2012-yilda Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joylarni qurish dasturining parametrlarini belgilab berdi.

Hujjatga binoan, ushbu yilda "tayyor holda topshirish" shartlari bilan umumiy maydoni 1371 gektar bo'lgan 276 turar-joy massivlarida 8510 ta uy qurilishi kutilmoqda.

Prezident hukumatning 19-yanvardagi majlisida o'z nutqida qayd etganidek, joriy yilda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi rejalashtirilgan umumiy turar-joy maydoni 1,2 million kvadrat metrdan ortiqni tashkil etadi.

Uy-joylarning eng ko'p qismi – 1160 uy Toshkent viloyatida quriladi (23 turar-joy massivida). Samarqand viloyatida 900 uy (19), Qashqadaryoda – 870 (22), Andijonda – 770 (27), Farg'onada 700 (28), Surxondaryoda – 680 (21), Xorazmda – 650 (20), Buxoroda – 630 (36), Namanganda – 560 (20), Navoiyda – 500 (20), Qoraqalpog'istonda – 400 (22), Jizzax viloyatida – 370 (14), Sirdaryoda – 320 (4) uy qurilishi rejalashtirilgan.

Kompleks qurilish joylarida 26 ta qishloq vrachlik punkti, 10 ta umumta'lim maktabi, 80 ta guzar, 109 ta savdo majmuasi, 42 ta bozor, 90 ta novvoyxona, 47 ta maishiy xizmat ko'rsatish majmualari va 33 ta mini bank qurish ham ko'zda tutilgan.

Turar-joy posyolkalarida 425 kilometrdan ziyod vodoprovod tarmog'i, qariyb 260 km elektr liniyalari, 375 km gaz tarmoqlari va 306 km ichki yo'llar qurilishi rejalashtirilgan.

Prezident ta'kidlaganidek, ushbu maqsadlarda yil davomida qariyb 810 mlrd so'mlik kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish rejalashtirilmoqda. Umuman aytganda, Qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirishning 2015-yilgacha mo'ljallangan tasdiqlangan dasturini amalga oshirish ishlariga 2,2 mlrd AQSH dollari qiymatidagi mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

Dasturning amalga oshirilishida Osiyo taraqqiyot banki faol ishtirok etmoqda. Mazkur bank qishloqda yakka tartibdagi uy-joylar qurilishiga 500 mln dollar miqdorida, jumladan, 2012-yilda 160 mln dollar investitsiya kiritishni rejalashtirmoqda.

2011-yilda namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 1,1 million kvadrat metrga teng bo'lgan 7400 ta xususiy uy-joy qurib bitkazildi. Bu maqsad uchun 576 mlrd so'mlikdan ortiq investitsiyalar yo'naltirildi.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joylarni qurish dasturi amalda bo'lgan ikki yil davomida 15 ming qishloq oilalari yuqori darajadagi qulayliklarga ega uylar bilan ta'minlandi.

“Shu yilning 16-avgust kuni OTB direktorlar kengashining majlisi bo'lib o'tadi hamda unda qarz berish masalasi muhokama qilinadi. Hozirgacha barcha hujjatchilik ishlar taxt qilingan va kelishuvning barcha bosqichlari o'tildi”, – deya aniqlik kiritadi Iqtisodiyot vazirligining vakili.

Ma'lum bo'lishicha, qarz paketi bankning odatiy resurslari hisobidan to'rt transh asosida beriladi. 200 mln. \$ miqdoridagi ilk transhni taqdim qilish

to'g'risidagi kelishuv shu yilning sentabr oyida imzolanadi. Keyinchalik, 2015-yil oxirigacha har yili 100 mln. \$ dan kredit ajratiladi.

OTBning mazkur krediti O'zbekiston hukumatining qishloq joylarida turarjoy qurilishini kreditlash bo'yicha davlat dasturini amalga oshirishda ishtirok etayotgan OATB "Qishloq qurilish bank" orqali qayta moliyalashtiriladi.

O'rnatilgan tartibga ko'ra, hozirgi kunda respublikamizda ipoteka kreditidan foydalanganlik uchun foiz stavkasi shartnomani imzolash paytidagi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasining 50% miqdorida belgilanadi va ustama haqi qarzдорlikning haqiqiy qoldig'iga nisbatan olinadi. Ayni paytda Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi 12% miqdorida belgilangan.

Ipoteka krediti 15 yil muddatga berilib, uning dastlabki 6 oyi imtiyozli davr hisoblanadi (bu davrda ustama foizi to'lanmaydi). Ipoteka kreditining miqdori eng kam ish haqining 1 000 barobaridan oshmasligi lozim hamda u qurilayotgan turarjoyning 75% qiymatida beriladi.

2012-yil 16-fevral kuni Osiyo taraqqiyot banki (OTB) prezidenti Xaruxiko Kuroda bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari, moliya vaziri R.Azimov umumiy qiymati 508 million AQSh dollariga teng to'rtta zayom bitimini imzoladi. Xususan, 2011-2015-yillarda infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish dasturi doirasida zayom bitimi imzolandi.

Qishloq joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida uy-joy, muhandislik kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini qurish dasturi doirasida qishloq joylarda uy-joy qurilishini rivojlantirish bo'yicha qiymati 200 million dollarlik zayom bitimiga ham imzo chekildi.

Andijon shahrida suv ta'minoti va sanitariya xizmatlarini yaxshilash, jumladan, kanalizatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, Jizzax viloyatining Zafarobod va Arnasoy tumanlarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi

hamda Xorazm viloyatining qishloq aholi punktlarida suv ta'minotini yaxshilash uchun 58 million dollarlik zayom bitimlari imzolandi.

Elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish, jumladan elektr energiyasini nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish uchun 150 million dollarlik zayom bitimi imzolandi.

O'zbekistonda ayni paytda xalqaro moliya institutlari bilan Yaqin hamkorlikda elektr energetika sohasi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinmoqda, muqobil energiya manbalaridan keng foydalanishga qaratilgan huquqiy va ishlab chiqarish bazasi yaratilmoqda.

XULOSA

Har qanday tarbiya, albatta, avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda Yosh oilalarni har tomonlama moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilyapti.

Yosh oilalarga e'tibor mustaqillikdan so'ng yanada kuchaydi. Yangi nikohdan o'tgan yigit-qizlarga amaliy ko'mak ko'rsatishning huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, «O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga doir davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonun va Oila kodeksi qabul qilindi. Oila institutining jamiyatimizdagi o'rnini yanada mustahkamlash maqsadida respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

1998 yil «Oila yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan oilaning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini oshirish, uning to'kis va farovon bo'lishi borasida keng qamrovli ishlar qilindi. Ayniqsa, Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga jiddiy e'tibor berildi.

Prezidentimizning 2007 yildagi «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq davlat hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa mutasaddi tashkilotlar zimmasiga qator vazifalar yuklandi. Xususan, har bir hududda yangi ish o'rinlari ochish, Yoshlarni kichik biznes va tadbirkorlikka jalb qilish, Yosh oilalarga o'z ishini tashkil etishi uchun mikrokreditlar ajratish, kasanachilikni rivojlantirish, ularga imtiyozli ravishda qoramollar sotish asosida mehnat bilan bandligini ta'minlash va Yosh oilalarning barqaror daromad manbalarini shakllantirish uchun boshqa zarur sharoit yaratish asosiy vazifa etib belgilandi.

Ipoteka va iste'mol kreditlari ajratish yo'li bilan uy-joy sotib olish yoki qurish, uy-xo'jaligini yo'lga qo'yishda Yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda amaliy yordam berish, ta'lim, tibbiyot, huquqiy axborot va maslahat, shuningdek, sog'lig'ini saqlash borasidagi xizmatlar sifatini oshirish, Yosh oilalarni ma'naviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, Yoshlarda oila oldida mas'uliyat hissini, mehnat

qilish va xalqimizning boqiy ma'naviy qadriyatlari ruhida bola tarbiyalashga intilish tuyg'ularini shakllantirish borasida aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'sha yilning o'zida Yosh oilalar kichik biznes va tadbirkorlikni tashkil qilishi, uy-joy qurishi, ta'mirlash va sotib olish (ijaraga olish)i, uy-xo'jaligini yo'lga qo'yishi kabi maqsadlar uchun 50 milliard so'm mablag' ajratildi.

Farmonda bu boradagi ishlarni har yili davom ettirish belgilab qo'yilgan. Shunga muvofiq tijorat banklari, «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati, Savdo-sanoat palatasi Yosh oilalarga yuqoridagi maqsadlar uchun 2007 yilga mo'ljallangan hajmdan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha kredit mablag'larini izlab topish va ajratish to'g'risida Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan takliflarni har yili Vazirlar Mahkamasiga kiritishi ko'zda tutilgan.

Mazkur Farmon imtiyozlari tatbiq etiladigan Yosh oila toifasiga, har biri 30 Yoshdan oshmagan, birinchi marta rasmiy nikohdan o'tgan Yoshlar kirishi belgilangandir. Farmonga muvofiq Yosh oilalarga berilgan imtiyozlar bo'yicha ishlatiladigan mablag'lar qator soliqlardan ozod qilinadi.

Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida Yosh oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kam-ko'stini to'ldirib olishi uchun ko'mak berish muhim ahamiyatga ega. Chunki oila mustahkam bo'lishi, sog'lom va bilimli farzandlar tarbiyalanishi iqtisodiy ta'minlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liq.

2012 yilni «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilar ekan, davlatimiz rahbari yana bir bor hammaning e'tiborini shunga qaratdi. Jumladan, endi yuzaga kelgan, katta umid bilan hayotga qadam qo'yayotgan Yosh oilani moddiy va ma'naviy jihatdan astoydil qo'llab-quvvatlash, ularga ko'mak, imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berish, avvalo, uy-joy bilan ta'minlash — bularning barchasi uchun nafaqat ota-onalar, birinchi navbatda davlat va jamiyatimiz mas'ul ekanini ta'kidladi.

Shundan kelib chiqib, «Mustahkam oila yili» munosabati bilan ishlab chiqiladigan Davlat dasturi orqali bu boradagi chora-tadbirlarni yanada

kuchaytirish, bunda, jumladan, kam ta'minlangan, iqtisodiy imkoniyati cheklangan Yosh oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, uy-joy xo'jaligini tashkil etishda ularga qo'shimcha imkoniyat yaratib berish bizning ustivor vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: - O'zbekiston, - 2005. –46 b.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Qarori “Aholining keng qatlami, shu jumladan Yosh oilalar uchun uy-joy qurilishini va rekonstruktsiya qilishni moliyalashtirish va kreditlash tartibi to'g'risida” 2007 yil 15 sentyabr №24/6 sonli qarori
- 1.3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 03 avgustdagi PQ-1167- sonli «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari

- 1.2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uy-joy qurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. Xalq so'zi, 2005 yil 16 fevral.
- 1.2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida” 2007 yil 18 may, PF-3878-son
- 1.2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 29 yanvardagi PP-1051-sonlari “Uy-joy fondini rekonstruktsiya qilish, ta'mirlash va foydalanishga tayyor holda topshirish bo'yicha pudrat ishlarini rivojlantirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni.

1.2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori

“Qishloq qurilish bank” aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida” 2009 yil 30 mart, PQ-1083-son

1.2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori 2009 yil 03 avgustdagi PQ- 1167-sonli

1.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1.3.1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori

“Yakka tartibdagi uy-joyqurilishi tog'risida”

2006 yil 30 dekabr, 272-son

1.3.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

"Oilalarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga doir

qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi 111-sonli 2012 yil 17 aprel

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari.

1.4.1. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi ro'znomasi 2011 yil 21 yanvar,

1.4.2. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.

1.4.3. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.

1.4.4. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.

1.4.5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

1.4.6. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.

1.4.7. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.

1.5 Kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami:

- 1.5.1. Karimov I.A. "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida"
O'zbekiston, 1998
- 1.5.2. Karimov I.A. "Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi
o'z kuch- qudratimizning xamjixatligi va bukilmas irodasiga bog'liq"
O'zbekiston, 2004.
- 1.5.3. Karimov.I.A."Mustaqillik ostonasida. **O'zbekiston, 2011**
- 1.5.4. Uy-joy kommunal xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi.
V. Yodgorov, D. Butunov. Toshkent.2010 yil
- 1.5.5. "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlarini yanada rivojlantirish va
turar joylarga xizmatlar ko'rsatishning aniq bozorini shakllantirish chora-
tadbirlari to'g'risida" Xalq so'zi, 2006 yil 12 aprel.
- 1.5.6 Milliy entsiklopediya. O'zbekiston, 2002.

1.6 Statistik to'plamlar.

- 1.6.1. O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning 2005 yildagi
asosiy ko'rsatkichlari. –Toshkent, -2006. -80 b.
- 1.6.2. O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning 2006 yildagi
asosiy ko'rsatkichlari. –Toshkent, -2007. -86 b.
- 1.6.3. O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning 2007 yildagi
asosiy ko'rsatkichlari. –Toshkent, -2008. -90 b.
- 1.6.4. O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning 2001 yildagi
asosiy ko'rsatkichlari. –Toshkent, -2002. -112 b.

Internet saytlari.

www.press-service.uz - Prezident sayti.

www.gov.uz - Xukumat sayti.

www.pravo.uz. – O'zbekiston Respublikasi qonunlar va farmonlar bazasi.

www.uzreport.com. - O'zbekistondagi yangiliklar.

www.olam.uz - Yangiliklar portali.

www.Ziynet.uz - Ilm fan portali

www.Lex.uz - O'zbekistondagi qonunlar jamlamasi

www.Rosbalt.ru - Jaxon yangiliklar portali.

www.Kremlin.ru - Rossiya xukumat sayti

www.builder.com - Ijtimoiy sayt.

www.duechwel.com - Ipoteka kreditlari xaqida sayt.